

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

**MILLIY G‘OYA, MA‘NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQIY TA‘LIM
KAFEDRASI**

ALLAYEV XURSHID JAMOLOVICHNING

**“5141500 – Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquqiy ta‘lim” ixtisosligi
bakalavr darajasini olish uchun yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

***MAVZU: FUQAROLIK JAMIYATINI
SHAKLLANTIRISHDA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH
ORGANLARINING AHAMIYATI***

Ilmiy rahbar: o‘qituvchi S.Niyozov

QARSHI – 2013 yil

MAVZU: FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHAMIYATI

REJA:

KIRISH

I BOB. FUQAROLIK JAMIYATI – DEMOKRATIYA KO‘ZGUSI

1-§. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish tizimining muhim ijtimoiy organi bo‘lgan mahallaning shakllanishi va yangicha boshqaruv tizimi

2-§. O‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy jihatdan tartibga solinish holati

II BOB. O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARI – JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI

1-§. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini liberallashtirish hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish

2-§. O‘zbekistonda mahallaning tarixiy xotirani tiklash yo‘li bilan yoshlarning tarbiyasiga ta’siri

Xulosa

Adabiyotlar ro‘yxati

Ilova

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston xalqi mana 22 yildirki, milliy davlat mustaqilligi sharoitida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma’rifiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Davlatimiz islohotlarning samaradorligi birinchi navbatda aholining faolligiga, boshqaruv tizimining xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga bog‘liqligini chuqur anglagan holda hokimiyat tizimini qayta qurishga, takomillashtirishga katta ahamiyat berdi. Bu borada o‘zini o‘zi boshqarish organlarini barpo etish, ularning faoliyatlarini bevosita xalq manfaatlari, ehtiyojlari bilan bog‘lash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangani ma’lum. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov bu haqda: “Birinchi navbatda, bozor islohotlarini amalga oshirish, tadbirkorlikni rag‘batlantirish, aholini ish bilan ta’minlash, iste’mol bozorini to‘ldirish, ijtimoiy infrotuzilmani rivojlantirish, odamlarning moddiy farovonligini oshirish va aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish masalalari mahalliy hokimiyat idoralari hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan hal etilishi kerak. Ayni shu bilan biz fuqarolik jamiyatining mustahkam asoslarini barpo etishimiz mumkin”,¹ deb aytgani bejiz emas. Chunki “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasining asosini ham ana shu masala tashkil etadi.

Istiqlolimizning dastlabki kunlaridan boshlab bu yo‘lda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruvi keng joriy etildi va bu yo‘l mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning bosh yo‘nalishiga aylanib qoldi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 105-moddasiga, 1993 yil 2 sentabrda Respublika Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda 1999 yil 14 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunlariga binoan aholining o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z huquqiy maqomiga va vakolatlariga ega bo‘ldi.

O‘tgan davr mobaynida mahalla, qishloq, shaharcha, ovul fuqarolar yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida ma’lum tarixiy tajribaga ega bo‘ldi.

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. “O‘zbekiston”, 1999. 27-b.

Bu tajribani o'rganish ularning faoliyatini yanada takomillashtirish, jamiyatda tutgan o'rnini mustahkamlashga va shu asosda kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tishdek strategik maqsadga erishish yo'llari, uslub va shakllarini aniqlash imkonini beradi. Zikr etilgan tajribani o'rganish va umumlashtirish zaruriyatining ilmiy va amaliy ahamiyati mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Bitiruv malakaviy ishda bu dolzarblik bir qator omillar bilan bog'liqligi ta'riflangan.

Birinchidan, mustaqillik sharoitida jamiyatni isloh qilish jarayonlarida o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini shakllantirish, uni milliy an'analar va jahon tajribasi asosida tashkil qilishning huquqiy asoslarining yaratilishi;

Ikkinchidan, hozirga qadar respublikamizda 94.622 ta o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular o'tish davrining muhim muammolari: milliy, diniy va ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash, kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy va ma'naviy yordam berish, aholini ish joylari bilan ta'minlash, jinoyatchilikni kamaytirish, yoshlar tarbiyasi, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirish va mamlakatda milliy xavfsizlikni mustahkamlash kabi vazifalarni hal qilishda o'z hissasini qo'shmoqda. Ularning bu boradagi tajribasi esa tarixiy yo'nalishda umuman tadqiq etilmagan.

Tadqiqot davriy jihatdan 1991-2011 yillarni qamrab oladi. Tanlangan mavzuning mavzusini to'liqroq ochib berish maqsadida, mahallalarning mustaqillikkacha bo'lgan, xususan, sovet davri va undan oldingi davrdagi tarixi o'rganib chiqildi. Qiyosiy tahlillar asosida O'zbekistonda amalga oshirilgan o'zini o'zi boshqarish organlari islohotining ahamiyati ko'rsatib o'tildi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zini o'zi boshqarish tizimining tarixiy tajribasi va hozirgi faoliyati O'zbekistonning turli yo'nalishdagi mutaxassis olimlari: tarixchi, siyosatshunos, huquqshunos va faylasuflarning diqqatini tobora ko'proq jalb etayotgan masalalardan hisoblanadi.

O'zbekistonning yangi tarixining uchinchi kitobi bo'lgan Mustaqil O'zbekiston tarixining "O'zini o'zi boshqarish organlarining rivojlantirilishi" bo'limida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida bu

organlarning tashkiliy va huquqiy asoslarining yaratilishi, ularga faollarni saylash masalasi hamda ularning demokratik jamiyatda tutgan o'rnini qisqacha ta'riflangan. Ammo mavzuga oid ko'pgina muhim masalalar yoritilmagan.¹

Mustaqillik davrida ushbu mavzu o'rganilib, tahlil qilingan asarlar mualliflari Z.H.Arifxonova, SH.Jalilov, O.Husanov, SH.Mahmudbekov va boshqalarning asarlari har tomonlama yangi metodologik asosda ilmiy – yangi jihatdan tahlil qilingan.²

L.Levitin O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlarining shakllanishi to'g'risida “mahalla – o'zbeklar hayotini an'anaviy tashkil etishning kichik ijtimoiy tuzilmasi ekanligi, mahallalar o'zbek jamiyatidagi an'anaviy demokratiyaning eng asosiy instituti, o'zbeklar jamoatchiligining eng yuqori nuqtasi bo'lib kelganligini va mahalla o'zbeklar tarixining eng keskin burilish davrlariga ham bardosh berganligini” ta'kidlaydi hamda “bugungi mahalla – O'zbekistondagi fuqarolik jamiyatining g'oyat muhim institutidir”,³ deb qayd etadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Respublikamizning mustaqillika erishuvi tufayli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida eng avvalo fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining shakllanishi va ularni takomillashtirishning tarixiy tajribasini tahlil etish, umumlashtirish, amaliy faoliyatini o'rganib tegishli xulosalar chiqarish lozim. Shunga binoan tadqiqotning quyidagi maqsadlari belgilab olindi:

- O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini rivojlantirishni taqozo qilgan siyosiy, ijtimoiy shart-sharoitlarni o'rganish;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini shakllantirishning tashkiliy va huquqiy asoslarining mohiyatini yoritish;

¹ O'zbekistonning yangi tarixi. // Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.3. T. “Sharq”, 2000. B.118.

² Арифханова З.Х. Современная жизнь традиционной махалли Ташкент. Т. «Узбекистан», 2000. Jalilov Sh. Davlat hokimiyati mahalliy organlari islohoti: tajriba va muammolar. T.1994. Jalilov Sh. Mahalla yangilanish davrida. T. “Mehnat”, 1995. Husanov O. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. T.1996. Mahmudbekov SH. Oila va mahalla – milliy qadriyatlar maskani, tarbiya o'chog'i. T.1999. Jalilov Sh. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari. T.2001.

³ Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T. “O'zbekiston”, 2001.

– demokratlashtirish jarayonida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatish;

– o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat vakolatlarini, jumladan, aholining kam ta‘minlangan qismini ijtimoiy muhofaza qilishni amalga oshirish, yoshlar tarbiyasini talab darajasiga ko‘tarish, mamlakatda milliy xavfsizlikni mustahkamlash kabi dolzarb muammolarni yechishdagi o‘rnini to‘la ochib berish;

– o‘zini o‘zi boshqarish organlarini idora etish tizimida rais (oqsoqol) va maslahatchilar lavozimining joriy etilishi hamda ularga o‘tkaziladigan saylovlar mazmunini ochib berish va o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini rivojlantirishda kadrlarning mavqeini ko‘rsatish;

– tadqiqot natijalarini umumlashtirib, tegishli xulosalarni ta‘riflab berish va respublikamizda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ish faoliyatini bundan keyin yanada takomillashtirish maqsadida takliflar kiritish.

Mavzuning ilmiy yangiligi shundan iboratki, bunda barqaror bo‘lgan yangicha metodologik yondashuvlar va hozirgi davr talablari asosida O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlari tarixi va takomillashuvi tarixi; bu idoralarning shakllanishi uchun yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy shart-sharoitlar, ularning tashkiliy, huquqiy asoslari, davlat vakolatlarini bajarishdagi o‘rni, yoshlar tarbiyasi, aholini ijtimoiy himoyalash borasidagi faoliyati yoritilgan.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va qaror toptirilayotgan milliy istiqlol g‘oyasi hamda mafkurasiga asoslangan nazariyalar va tarixiylik, xolislik tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari Prezident Islom Karimovning nutqlari, asarlarida ilgari surilgan muhim ilmiy-nazariy qoidalar va xulosalardan iborat.

Mavzuni yoritishda Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” siyosiy konsepsiyasi tadqiqotning ilmiy nuqtai-nazarini, asosiy masalalarga yondashuvlarga belgilashda muhim omil bo‘ldi.

Tadqiqotning manbaviy asosini O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan keyin qabul qilingan rasmiy hujjatlar, chop etilgan ilmiy, siyosiy va ommabop asarlar, maqolalar tashkil etadi. Ularning orasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi hamda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi va yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunlar alohida o‘ringa ega.

Bitiruv malakaviy ish Kirish, ikki bob, to‘rt fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat.

I BOB. FUQAROLIK JAMIYATI – DEMOKRATIYA KO‘ZGUSI

1-§. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish tizimining muhim ijtimoiy organi bo‘lgan mahallaning shakllanishi va yangicha boshqaruv tizimi

Rivojlangan har bir mamlakatdagi fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlatda vakillik tizimining joriy etilishi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ixtiyoriy jamoa tuzilmalari ommaga davlat boshqaruvi masalalarini hal etishda yuqori darajada erkin sharoit yaratib berib, xalq hokimiyati nufuzini kuchaytirdi. Milliy davlatchilik tarixining noyob usuli mahalla ana shunday boshqaruv tizimi hisoblanadi.

Jahon davlatchiligi tarixidan ma’lumki, jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan boshqaruv tizimi bilan uyg‘unlashadi. Bu jarayon mazkur mamlakat xalqining urf-odatları, udumlari, mentaliteti va davlatchilik tarixi an’analari bilan uzviy bog‘liqdir. Ko‘hna Sharqda ham davlat qurilishi va boshqaruv tajribasi o‘ziga xos an’analariga ega bo‘lib, azaldan ijtimoiy-siyosiy hayotda mahallalarning mavqei juda ham salohiyatli bo‘lgan. Shu boisdan ham mahalla o‘zini-o‘zi boshqaruvining eng maqbul usuli hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va ma’rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslaxat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan¹.

O‘zini-o‘zi boshqarishning eng asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan mahallada har bir kishining taqdiri, orzu-umidi, hayotga va odamlarga bo‘lgan munosabati qat’iy nazoratda turadi, mahalladoshlar bir-birlari bilan o‘zaro hisoblashib yashaydilar. Shuningdek, mahallachilik xalqimizning olis tarixiga an’analariga, uning boy ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga chambarchas bog‘liq bo‘lgan ulkan hayot maktabi hamdir.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T., 2008. B.58.

Prezident I.A.Karimovning «chuqur ildizi utmishdagi ananaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan kollektivchilik asoslari O‘zbekiston xalqiga xosdir»,¹ degan purhikmat iborasida ham chuqur ma’no mujassam. Chunki, jamoa tuyg‘usi bo‘lmagan xalqda sahiylik bo‘lmadi. Jamoa tuyg‘usidan saxiylik kelib chiqadi, bunga moyillik esa xalqimizning eng oliyjanob insoniylik fazilatidir.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek: «Bag‘rikenglik, o‘zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar aynan shu mahalla muhitida kamol topadi. Shu ma’noda, mahallani o‘zini o‘zi boshqarish maktabi, ta’bir joiz bo‘lsa, demokratiya darsxonasi, deb atash mumkin».²

Insoniylik g‘ururi, ahillik, birdamlik va milliy qadriyatlar maskani hisoblangan mahallada yoshlarda Vatan, millat tushunchalari, milliy o‘zlik, mehr-oqibat, muruvvat, himmat, bag‘rikenglik, kechirimlilik, el-yurt sha’ni uchun kurash kabi olijanob fazilatlar shakllanadi. Qariyalarning nasihatlari shaxsiy ibрати va jamoa misolida kishilar ongiga ezgulik g‘oyalari dastlab mahallada singdirib boriladi.

Mahalla odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda yaxshi qo‘shnichilik, hurmat va insonparvarlikni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. U fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qiladi, aholining muhtoj qatlamlariga yordam beradi.

Mahalla o‘z hududidagi uy-joylarning oldi-sotdisi, to‘y-ma’raka, hasharlar o‘tkazish va turli nizolarni bartaraf etish ishlarini o‘z zimmasiga oladi. Har bir mahallaning o‘z guzaridagi choyxonasi ma’naviyat markazi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikka erishgandan so‘ng jamiyatimiz hayotning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalarida olamshumul o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. O‘tgan qariyb 20 yildan ortiq vaqt ichida boy tarixiga ega, o‘tmishi ko‘p asrlarga borib taqaladigan yurtimizda Prezident I.A.Karimov tomonidan “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasi olg‘a surildi. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek: “Mamlakatga amalga oshirilayotgan yangilanish va taraqqiyot siyosatining strategik maqsadi-huquqiy

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura 1-tom T., 1996 B.41

² Karimov I. A. Milliy istiqol mafkurasi-xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir T., 2000 B.24

demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat”¹

Ushbu ezgu maqsadni amalga oshirishda birinchi navbatda hududiy qo‘shnichilik jamoalari, boshqacha qilib aytganda fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ya’ni mahallalarning o‘rni nihoyatda salmoqlidir.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatining tamal toshi fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi-mahallada qo‘yilar ekan, mazkur ijtimoiy muassasani faoliyat doirasini samarali tashkil etish, muvofiqlashtirish va kengaytirish shu kunning eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Yurtboshimiz uqtirganidek: “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko‘lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o‘zaro yaqin munosabatlarini ta’minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.”¹ Shu maqsadda ayni shu muammo bo‘yicha ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunda ayniqsa, mahallalarning hozirgi mustaqillik davridagi faoliyati tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Shu boisdan ham mahalla tarixi, faoliyati va istiqboli juda ham keng qamrovli hisoblanadi.

Moziy tarix sahifalarining guvohlik berishicha, mahalla tarixi ancha uzoq o‘tmishga borib taqaladigan, kattayu-kichikning, yoshu-qarining lavozimidan qat’iy-nazar barchaning birdek vatanidir. Ma’lumki, azaldan o‘zbek mahallalari chinakam ezgulik beshigi, tarbiya o‘chog‘i, milliy qadriyatlar maskani bo‘lib keladi. Bu inson tarbiyasida ayniqsa muhim rol o‘ynaydi.

Demokratiyaning eng ko‘p tarqalgan shakllaridan biri fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish hisoblanadi. O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish tizimining asosiy bo‘g‘inini mahallalar tashkil qiladi.²

¹I.A.Karimov Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T., 2010. B. 45

²M.Suvonqulov. Mahalla-qariyalarni qadrlash va yoshlarni ma’naviy tarbiyalash maskani.- “Fuqarolik jamiyati”, 2008 yil 4-son, B.33

Eng qadimgi qadriyatlarimizdang hisoblangan, xalqimizning qon-qoniga singib ketgan, o'zbek xalqining yashash tarzini o'zida to'la-to'kis mujassam etgan mahallaning jamiyatdagi munosib o'rnini tiklab qo'yildi. O'zbek mahallasi-xalqimizga xos donishmandlik timsoli bo'lib, u tarixda ham o'z jozibasi, hayotiyligi, xalqchilligi, betakrorligi bilan dunyo ahli tafakkurini o'ziga jalb qilib kelgan.

Moziydan tortib hozirgacha davlatlar o'zining ko'pgina ezgu amallarini, xosiyatli, barakatli tadbirlarini, hayotiy muhim masalalarini mahallada oqsoqollar, faollar aql-zakovti, adolatli nazorati bilan amalga oshirib, hal qilib keladilar.

O'zbekistonda mahalla bo'lib, jamoa bo'lib yashashning necha ming yillik tarixi bor. Bizda bu an'analarni yangi mazmun bilan boyitmoqdamiz. Bu davrda mahalla joylardagi o'zini-o'zi boshqarish tizimini tayanchi sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Bu jamiyatimiz bugungi hayotining eng samarali, ayni paytda milliy va xalqchil ko'rinishidir.

Tarixdan ma'lumki, mahallalar ezgulik beshigi, tarbiya o'chog'i, milliy udumlar, urf-odatlar va an'analari shakllangan maskan bo'lib, odamlarni o'zaro mehr-oqibatli, sahovatli qilib tarbiyalashda, o'ziga xos jamoaning shakllantirilishida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. O'zbek mahallalari o'zida jamoatchilik ruhi, insonparvarlik, o'zaro yordam, insof, diyonat, rahmdillik kabi insoniy tuyg'ular bilan sug'orilgan holda shakllangan katta oiladir. Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida qarindosh-urug'chilik asosida tashkil topgan jamoalar o'rniga kelgan mahallalar jamiyat hayotida asosiy o'rin tuta boshlagan.

Jahon davlatchiligi tarixidan ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan boshqaruv tizimining samaradorligiga uzviy bog'liq. Hozirgi davrda turli mamlakatlarda boshqaruvning har xil usullari mavjud. Bu jarayon, tabiiyki, o'sha mamlakat xalqining urf-odatlari, an'analari, mentaliteti va davlat tarixiga chambarchas bog'liq holda ketadi. Jumladan, Sharqda davlat qurilishi va boshqaruv tajribasi o'ziga xos an'analarga ega bo'lib, azaldan ijtimoiy-siyosiy hayotda mahallalarning roli juda katta bo'lgan. Shunday ekan, mahalla o'zbek davlatchiligi boshqaruvining ham odil va noyob usuli hisoblanadi.

Mayda irmoqlar birlashib ulkan daryo hosil bo'lganidek, o'zbek davlati ham mahalla, qishloq, qo'rg'on, shahar, tuman, viloyatlardan barpo etilgan. Dastlabki irmoq-mahalla mamlakatning ishonchli bo'g'ini, chinakam ustuni, poydevori hisoblanib, ijtimoiy-siyosiy hayotimizning ko'zgidir. O'zbek xalqining sharqona an'analari, urf-odatlari, xususan, mehr-oqibat, muruvvat, to'y-ma'rakada jamoaning hamjihatligi mahalla hayotida yorqin namoyon bo'ladi.

Mahallaning o'zini-o'zi boshqarishning eng asosiy bo'g'ini bo'lib, bu joyda har bir kishining taqdiri, orzu-umidi, hayoti va odamlarga munosabati qat'iy nazoratda turadi, ular bir-birlari bilan hisoblashib yashaydilar. Shu bilan birga, mahallachilik uzoq an'analarga va xalqimiz tarixiga, uning boy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga chambarchas bog'liq bo'lgan ulkan hayot maktabi hisoblanadi.

Yurtboshimiz yozganidek: "Xalqimizga xos o'zini o'zi boshqarish tizimining bu noyob usuli-qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dinida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz "Mahalla-ham ota, ham ona" degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz".¹

Mahalla-shahar va qishloqlarda aholi yashaydigan ma'muriy, hududiy birlik uyushmasidir. XX asrning birinchi choraklariga qadar mahalla 50-60 xonadondan tashkil topgan bo'lib, yirik shaharlarda dala tarkibiga kirgan. Mahalla hay'atiga saylab qo'yiladigan oqsoqol rahbarlik qilgan.

Moziy tarixidan ma'lumki, insoniyat tarixida oiladan keyin mahalla shakllangan. Mahalla o'zbek xalqi uchun boshqarishning qadimgi, adolatli va insonparvar an'anaviy tizimi hisoblanadi hamda xalqimizning tinchligi va osoyishtaligining eng asosiy garovi, millatimiz timsoli, Vatan ichra vatan bo'lgan muqaddas go'shadir.

Milliy g'urur, ahillik, birdamlik va qadriyatlar makoni mahalladir. Bu yerda yoshlarda Vatan, millat tushunchlari, milliy o'zlik, mehr-oqibat, muruvvat, hikmat, bag'rikenglik, kechirimlilik, hurmat va insonparvarlikni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. U fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qiladi, aholining muhtoj

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". T., 2008, B.58-59

qatlamlariga yordam beradi. Bu mahalladagilardagi uy-joylarning oldi-sotdisi, to'y-ma'raka marosimlarini uyushtirish va mahallalardagi nizolarni bartaraf etish ishlariga boshchilik qilgan. Har bir mahallaning o'z guzarida choyxonasi bo'lib, u mahallaning ijtimoiy-madaniy markazi hisoblangan.

Mahallalar Oktabr to'ntarishigacha bo'lgan davrda ham aholini boshqarish va uyushtiruvchi asosiy tuzilma bo'lgan. O'zbek xalqining kundalik ijtimoiy hayotini va turmushini tashkil etuvchi asrlar osha takomillashib kelgan organdir. Mahalla o'z mohiyatiga, faoliyati, mazmuni va shakllari bilan sharqona fikrlash, faoliyat yuritish kabi xalqimizning o'ziga xos fazilatlarini aks ettiradi. Mahallalar aholini ahil-totuv yashashga, sidqidildan mehnat qilib kasb o'rganishga, shu orqali umrguzaronlik qilishga undaydi.

Ma'lumki, mahalla fuqarolarining tashabbusi bilan tashkil etilgan tarixiy jamoa bo'lib, shakllanish tarixi ildizlari juda olis davrlarga borib taqaladi. Mahallalar kecha yoki bugun paydo bo'lmagan, ularning o'ziga xos hayot tarzi juda qadimdan shakllangan, hattoki ibtidoiy jamiyat davriga borib taqaladi. O'tmishda ham mahalla tarbiya o'chog'i, millat qadriyatlar maskani hisoblangan. Donishmand ajdodlarimiz xalqimizning o'zligini, urf-odatlarini va marosimlarini avaylab saqlashda asosan mahallaga tayanganlar.

Mahalla deganda katta oila yoki bir necha oilalarni o'ziga birlashtirgan hududi birlikdagi jamoa tushinilgan. Mahalla fuqarolarning tashabbusi bilan tashkil etilgan tarixiy jamoadir. Necha asrlardan buyon o'zbeklar mahallalarda yashab, o'zining ma'lum tartib intizomi, qonun-qoidalariga rioya qilgan holda yashab kelmoqda.

Mahalla arabcha-«maxallun» so'zidan olingan bo'lib, fuqarolar yashaydigan joy, o'rin, makon degan ma'nolarni anglatadi. Demak, mahalla shahar va qishloqlarda aholi yashaydigan ma'muriy, hududiy birlik, uyushmadir. Mahalla ko'chalari kesishgan va tutashgan hamda odamlarning o'tish joyi esa guzar deyiladi. Guzarda shahar va qishloqlarning uch-to'rt ko'chasi yoki choyxona, baqqollik, qassoblik va boshqa do'konlari mavjud bo'lgan gavjum, serqatnov obod joydir. Odatda mahalla ahli guzarga chiqib choyxo'rlik qilganlar, suhbatlashganlar

va hordiq chiqarganlar. Guzarni qozi tayinlaydigan oqsoqol-guzar boshi boshqargan.

XX asrning birinchi choraklariga qadar mahalla o'rtacha 50-60 xonadondan tashkil topgan bo'lib, yirik shaharlarda esa daha tarkibiga kirgan. O'rta Osiyo xonliklarining qishloqlar va yirik shaharlaridagi ma'muriy-hududiy birlik daha (forscha «unlik») deyilgan. Bir necha qishloqlar bir vohaga birlashtirilgan, yirik shahar esa bir necha dahaga bo'lingan. Unda bir nechta mahalla, madrasa, masjid, bozor, hammom va jamoat binolari orasida joylashgan. Daxani asosan oqsoqol (mingboshi) boshqargan. Mahalla hay'atiga esa saylab qo'yiladigan oqsoqol-ellikboshi rahbarlik qilgan.

Mahalla bir ko'cha yoki alohida guzarda yashaydigan, o'zlariga eng qadrdon bo'lgan ana shu makon orqali doimiy yaqinligini his etgan odamlarni birlashtiradi. Bu insonlarning hayotida maqsadlari ham o'zaro mushtarak tarzda uyg'unlashib ketgan, to'y-ma'raka, hashar uyushtirish, muhtoj va ehtiyojmand odamlarga yordam berish, turli bayram va tantanalarni birgalikda nishonlash va hokazo. Xullas, mahalla insonlarda jamoat tuyg'usi va ruhini shakllantirishda ham muhim o'ringa egadir.

Mahalla tarixining ildizlari ancha qadimgi bronza davriga borib taqalishini arxeolog-qadimshunos olimlar aniq ashyoviy dalillar asosida isbotlab berganlar.

Mahalla juda qadim tarixga ega bo'lib, uning ildizlari bronza davriga borib taqaladi. Qadimshunoslik manbalarining guvohlik berishicha, bronza davriga borib taqaladi. Qadimshunoslik manbalarining guvohlik berishicha, bronza davrining yodgorligi bo'lgan Surxondaryo vohasidagi Sopollitepada 8 ta oilaning manzilgohi aniqlangan. Ularni birlashtirgan narsa faqat urug' jamoasi emas, balki eng avvalo, ishlab chiqarish manfaatlari edi. Bu manzilgohdagi 8 ta oila tarkibida patriarxal tizim asosida qurilgan yuzdan ortiq juft oilalar uyushgan. Har bir katta oila jamoasini o'zlari saylagan oqsoqol boshqargan. Har bir jamoa oqsoqollari oliy oqsoqollar kengashiga birlashganlar. Jamoa qishloq hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha muammolar oqsoqollar kengashi orqali amalga oshirilgan.

Miloddan avvalgi III asrdan milodiy V asrning boshlarigacha qadimgi Fargʻona (Parkana) davlatida barcha masalalarni oqsoqollar kengashi hal etgan. Jumladan, ular urush holatini eʼlon qilish, sulh tuzish, vazirlar tarkibini va soliqlarni tayinlash kabi masalalarni hal etishgan. Oqsoqollar shohni ham almashtirish huquqiga ega boʻlganlar.

Oʻtmish ajdodlarimizning dunyoqarashi, maʼnaviyati, urf-odat va anʼanalari hamda ilk davlatchilik tarixini haqqoniy tarzda aks ettirgan bebaho asar “Avesto” mil.avv.I ming yillikning munosabatlari va boshqaruv tizimini mujassam etgan manba hisoblanadi.

Asarda jamoaviy munosabatlarga keng oʻrin berilgan boʻlib, uning patriarxal urugʻ jamoasi haqida fikr yuritilgan soʻnggi qismi “Videvdat”da iqtisodiy tengsizlik va tabaqalanish yoritilgan. Masalan, asardagi “azata”-erkin, ozod, moʻtabar odam, “asna”-jamoʻa urugʻlari, erkin jamoʻa aʼzosi maʼnolarini anglatadi.

“Avesto” jamiyati quyidagi toʻrt qismga boʻlingan: uy, oila jamoasi- “Nmana”, “dmana”, urugʻ jamoasi- “vis”, qabila, “zantu”, qabilalar ittifoqi- “daxiyu”. “Yasht”ning uchinchi bobida quyidagi lavhalar keltirilgan: “Xudo Mitrani biz ulugʻlaymiz. Unga hech kim yolgʻon gapirolmaydi: uyda-oila boshligʻi, urugʻ oqsoqoli, qabila boshligʻi va mamlakat sardori. Agar uy egasi, urugʻ oqsoqoli, qabila boshligʻi va mamlakat sardori yolgʻonchi boʻlsa, gʻazablangan Mitra butunlay oilani, urugʻni, qabilani, mamlakatni va uning boshliqlarini ham tamoman yoʻq qiladi”.¹

“Yasht” kitobida ijtimoiy munosabatlarning negizi katta patriarxal oila ekanligi taʼkidlangan. Oila, urugʻ va qabila boshliqlarini “pati” soʻzi anglatgan “nmonapati”, “vispati”, “daxiyupati”. Asarda “nmana”, “dmana” atamaları oila birligini, xonadon, uy maʼnolarini ifodalaydi. “Nmanapati” (oila boshligʻi), “nmapanatni” (uning xotini bolalari, nabiralari va evaralari) oila tarkibini tashkil etgan.

Erkak- “vira” askar maʼnosini ham anglatib, “vironmana”-katta oila xizmatkori deyilgan. Erkin jamoʻa aʼzolarida kambagʻallashgan qismi- “pornaytor”

¹ Sagdullayev A. Qadimgi Oʻzbekiston ilk yozma manblarda. T., 1996, B.23

(cho‘pon) qul bo‘lmagan, lekin tobe odam hisoblangan. “Vaysa (qul), “dira” (erkin askar), “parkaytor” (gunon)lar katta patriarxal oilaning a‘zolari bo‘lgan, lekin ularning huquqlari boshqa erkin a‘zolarga nisbatan cheklangan bo‘lgan.

Urug‘ jamoasi “vis”ga kamida 15 ta qarindosh “nmana” (oilalar jamoasi) kirgan va unga “vispati” (oqsoqol) boshchilik qilgan. «Vis» patriarxal oilalar (“nmana”) dan iborat edi.

“Avesto” davrida urug‘ jamoasi jamiyatning asosini tashkil etib, barcha siyosiy va ijtimoiy vazifalarni bajargan. Yaylov, ekinzor va kanallar “vis” (urug‘) mulki hisoblangan. Xullaski, nikoh, garovga turish tartib qoidalari jamoa tasarrufida bo‘lgan. Oqsoqollar kengash- “virzanpati”, “xanjamana”, xalq yig‘ini (majlisi)- “vyaxa” deyilgan. Jamoani boshqarishda harbiy demokratiya tamoyillariga qat‘iy amal qilingan. “Vis” (urug‘)ga “nmanopati”dan saylangan urug‘ boshlig‘i, diniy ustoz va rahnamosi “vispati” boshchilik qilgan. Shuningdek, asarda bir qishloqda joylashgan uyushmasi (“vrzona”) urug‘doshlar ittifoqi, (“aryanon”), qabila (“zantu”), qabila boshlig‘i (“zantupatr”) haqida ham ma‘lumotlar mavjud.

“Avesto” davrida “daxiyu” (viloyat)-yirik ma‘muriy hududiy birlik bo‘lib, ko‘plab zantu qabilalari yashagan va ma‘lum bir etnik uyushmaning hududi, el-yurti hisoblangan. “Daxiyu” (viloyat)ga “daxiyupati” boshchilik qilgan. “Kavi” yoki “sastar” (viloyat hokimi) daxiyu okruglarining birini yoki markazini boshqargan hamda harbiy boshliq lavozimini ham egallagan. Bir nechta daxiyular tepasida “daxiyusosti”-hukmdor turgan. “Sastar” so‘zi harbiy bo‘linmalarni ham anglatgan.

Asardagi “Yasht”ning uchinchi naqlida Hirot va Marvdan to Orol dengizigacha, undan Sirdaryogacha bo‘lgan yerlarning “daxiyu sosti” tarkibiga kirganligi aks ettirilgan. Qadimgi podsholiklar hukmdori-“daxiyu sosti” mutlaq hokim bo‘lmasdan, huquqlari nisbatan cheklanmagan va “daxiyu” hokimlarning oliy kengashiga bo‘ysungan. Bu uyushmaning diniy va oliy rahbari Zaratushraema edi. Shuningdek, asardagi “kshayati” (podsho)- “kshatriya” (harbiylar toifasi) “azota” (ozod, erkin) “xanchanona” (anjuman, majlis), “bantun” (bandi, qul)

atamaları ham o‘sha davrdagi ijtimoiy hayot haqida ma’lumotlar beradi. Ba’zi manbalarda yozilishicha, “kavi” undan bo‘lib, urug‘ jamoasi boshlig‘i sifatida ta’rif berilgan. Har bir urug‘ning oila a’zolari xshaytiya unvoni bilan ajralib turishi kerak edi. Bu unvon viloyat hukmdoriga taaluqli edi.¹

Mahalla azaldan O‘rta Osiyodagi shaharlar ichidagi hududiy birlik bo‘lib, u bizga o‘tmishdan meros bo‘lib qolgan. Arxeologik va etnografik ma’lumotlar mahalla arablar istilosidan ham ancha ilgari mavjud bo‘lganligini isbotlaydi. O‘tmishda mahalla muayyan bir yirik hududda yashovchi odamlar birlashmasi bo‘lib, unda odamlar faqat qarindoshlik rishtalari bilangina emas, balki yuz yillar davomida yaratilgan ichki tartib, qoida, ma’naviy-axloqiy normalar, urf-odatlar va an’analar bilan ham chambarchas bog‘langan edi.

Tarixiy manbalarda ham mahallalarning ko‘p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida qiziqarli lavhalar uchraydi.

Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiy (873-950) “Fozil odamlar shahri” asarida shunday yozgan edi. “Har uydagi odamlar o‘zaro yaqin aloqalarda bo‘ladilar, ya’ni ular bir ko‘chada yana bir mahallada yashaydilar. Shu tufayli odam avvalo qo‘shnisi bilan yaqin bo‘ladi. Yana u xuddi shu qo‘shnisi bilan bir ko‘chada, bir mahallada, bir shaharda va nihoyat... bir yurtda yashaydi”.²

Mashhur muarrix Abu Bakr ibn Ja’far Narshaxiy “Buxoro tarixi” asarida (X asr) Buxoroda 1100 yil muqaddam mahallalar bo‘lganligini qayd qilib o‘tgan. Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida mahallalar ayniqsa ravnaq topgan. O‘tmishda mahalla shaharcha ahamiyatiga ega bo‘lgan.

O‘tmishdan ma’lumki, inson tarixida oiladan keyin mahalla shakllangan. Mahalla o‘zbek xalqi uchun boshqarishning qadimgi adolatli va insonparvar an’anaviy tizimi hisoblanadi hamda xalqimizning tinchligi va osoyishtaligining eng asosiy garovi, millatimiz timsoli, Vatan ichra-vatan bo‘lgan muqaddas go‘shadir.

¹ F.Boynazarov Qadimgi dunyo tarixi.T., 2004. B.214

² Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. T., 1993, B.173

Oktabr to'ntarishigacha bo'lgan davrda ham mahallalar faoliyat ko'rsatib, aholini birlashtiruvchi va uyushtiruvchi asosiy tuzilma bo'lgan. O'zbek xalqini kundalik ijtimoiy hayotini va turmushini tashkil etuvchi asrlar osha takomillashib kelgan mahalla o'z mohiyati, mazmuni va shakllari bilan sharqona fikrlash, faoliyat yuritish kabi xalqimizning o'ziga xos fazilatlarini aks ettirgan. Mahallalar aholini ahil va tinch-totuv yashashga, sidqidildan mehnat qilib, kasb o'rganishga, shu orqali esa umrguzaronlik qilishga o'rgangan.

Ma'lumki, mahalla fuqarolarning tashabbusi bilan tashkil etilgan jamoa bo'lib, shakllanish ildizlari tarixining juda olis davrlariga borib taqaladi. Shuning uchun ham mahallalar kecha yoki bugun paydo bo'lmagan, balki ularning o'ziga xos hayot tarzi juda qadimda vujudga kelgan, hatto olis ibtidoiy jamiyat davrining oxirgi davriga ham xosdir. O'tmishda ham mahalla tarbiya o'chog'i va milliy qadriyatlar maskani hisoblangan. Donishmand ajdodlarimiz xalqimizning qadriyatlari, urf-odatlari va marosimlarini ko'z qorachig'iday avaylab saqlashda asosan mahallaga tayanishgan.

Mahalla azaldan O'rta Osiyo shaharlari ichidagi hududiy birlik bo'lib, u bizga o'tmishdan noyob meros bo'lib qolgan. Arxeologik va etnologik ma'lumotlar mahalla arablar istilosidan ham ancha ilgari mavjud bo'lganligini isbotlaydi. O'tmishda kichik bir hududda yashovchi odamlar uyushmasida va insonlar faqat qo'ni-qo'shnichilik rishtalari bilangina emas, balki ko'p yillar davomida shakllangan ichki tartib-qoida, ma'naviy-axloqiy meyorlar, urf-odatlar va an'analar bilan ham chambarchas bog'lanishgan.

Demak, mahalla minglab yillar burun ham Vatanimizda qaror topgan bo'lib, o'ziga xos ma'lum an'anaviy ichki tartib va qoidalarga ega bo'lgan hamda kishilar ongi va ma'naviyatiga ezgulik timsoli sifatida kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Ibtidoiy jamiyat bosqichi so'nggi davridan saqlanib kelayotgan jamoatchilik an'anasi-mahallachilikda ayniqsa yaqqol namoyon bo'lib, ayrim oila va shaxsning hayotida sodir bo'lishi lozim bo'lgan hayot tashvishlarni yechimini topishda hal qiluvchi ijobiy rol o'ynagan. Yirik shaharlar qabristonda har bir mahalla o'zining maxsus qismiga, ya'ni alohida xilxonasiga ega bo'lgan.

Jamoani boshqarish uchun maxsus shaxslar (oqsoqol, ellikboshi) mahallaning eng obro‘li kishilaridan saylangan va ularga yordamchi qilib erkaklardan arbob, poykor, ayollardan esa xodim tayinlangan. Aholi orasida o‘sha davrda turli ijtimoiy tabaqalar mavjud bo‘lib, boy, amaldorlarni va ruhoniylar bilan birga kambag‘al odamlar ham yashagan. Oqsoqollarning, jamoatchilikning fikri va so‘zi hal qiluvchi kuchga ega edi. Bu munosabatlar jamoaviylik, birlik tuyg‘ularini o‘zaro yordam, hamkorlik rishta va an‘analarini hayotga singdirib, milliy jipslikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, yoshu qariyalarni e‘zozlash, oilaviy munosabatlarda birdamlik, ahillik kabi insoniylik fazilatlarini shakllantirishda mahalla yetakchi o‘rinni egallagan. Ayniqsa, mahalla ozodaligini saqlash, jamoa va davlat ishlarini uddalash, umumiy tartib va odobni qaror toptirishda ham qo‘ni-qo‘shnichilik, mahallachilik an‘analari ijobiy ahamiyatga egadir. Shu boisdan ham shahar va qishloqlarimizda hozirgacha mahalla an‘analari saqlanibgina qolmay, balki yanada to‘laqonli takomillashib, ijtimoiy hayotda yetakchi va hal qiluvchi vazifalarni bajarmoqda.

Mustabid SHo‘ro hokimiyati davrida mahallaning an‘anaviy tartib va qoidalariga ancha darz ketgan edi. Hukmron tuzum va mafkura mahallani tan olmagan. Mahallaning demokratik ko‘rinishi kommunistik mafkura targ‘ibotchilariga doimo tashvish tug‘dirgan. Ular vakillik institutini despotiya, imperializm va monarxiya bilan bir qatorda turuvchi xususiy mulkchilik stixiyasi mahsuli deb qarashgan. 1918 yilning yanvaridagi Butun Rossiya ishchi, dehqon va soldat deputatlarining III sezdida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish va proletariat diktaturasi bir-birini inkor qiluvchi omil deyilib, Muvaqqat hukumat tomonidan ilgari surilgan mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish haqidagi fikr rad etilgan edi. Masalan, 1932 yil 17 aprelda qabul qilingan sobiq O‘zSSR Markaziy Ijroiya Komitetining «Shahar mahalla qo‘mitalari to‘g‘risida»gi Nizomida mahallalar huquqlari cheklandi. 1961 yil 30 avgustdagi «Respublika mahalla qo‘mitalarining tuzilishi faoliyatiga doir» Nizomi nomigagina qabul qilingandi. Bu hujjatda

mahallaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyat bilan shug‘ullanishi butunlay taqiqlangan edi.

Ma‘muriy-buyruqbozlik va markazlashgan byurokratik boshqaruv sharoitida jamoatchilik asosidagi o‘zini o‘zi boshqarish organlari Komfirqa rahbarligida ijtimoiy hayotning soxta demokratik asoslari mavjudligini ko‘rsatish uchun nomigagina tuzilgan edi. Tabiiyki, yuqori davlat organlari nazorati ostida o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanishiga imkon berilmas edi. Bu tizimni yagona andoza bo‘yicha tuzishga intilish aslida sobiq SSSRning mustamlakachilik siyosatiga to‘la moslashtirilgan edi.

Mustabid Sho‘ro davrida mahalla oqsoqollari va faollari jamoatchilik asosida faoliyat yuritganligi sababli ishlar qoniqarsiz ahvolda, beg‘amlilik, sansalorlik va o‘zi bo‘larchilik hukmron edi. Mahallani ozoda va toza saqlash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ham katta muammoga aylangandi. Mavjud mustamlakachilik tizimi juda ko‘plab xalqlarni, jumladan, o‘zbeklarni ham o‘zligidan, milliy qadriyatlaridan mosuvo etishga jon jahdi bilan tirishdi. Lekin, iligi baquvvat va palagi toza o‘zbek xalqi mustamlakachilik, turg‘unlik va boshqa turli siyosatbozliklar, nayrangbozliklar davrida ham o‘z milliy qadriyatlarini, mentalitetini saqlab qoldi va Vatan ichra-vatan sanalmish mahalla (guzar) lar ajdodlarimizdan noyob meros bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirgach, milliy davlatchilik an‘analariga, qadriyatlariga mos keluvchi va xalq xohish – irodasini to‘la aks ettiruvchi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tizimini barpo etishni asosiy maqsad qilib qo‘ydi. Bunda xorijiy mamlakatlarning e‘tiborli tajribalari chuqur o‘rganildi va yurtimiz sharoiti e‘tiborga olindi. Natijada O‘zbekistonga xos va mos fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vujudga keldi. Xususan, hozirda deyarli jahonning barcha mamlakatlarida (Fransiya, Germaniya, Rossiya, Turkmaniston va boshqa) bu institut mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish deb atalsa, O‘zbekistonda esa fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi deb ataladi.

O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy – hududiy bo‘linishining eng quyi pog‘onasida davlat organlari o‘rniga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tashkil qilindi. Shuningdek, shaharlardagi mahalla va mavzelarda ham fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tuzildi. Bu organlar zimmasiga avval davlat organlari amalga oshirib kelgan ko‘pgina vazifalar yuklatildi.

Xulosa qilib aytganda, hukumatimiz tomonidan ilgari surilayotgan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» siyosiy qurilish dasturining bosh yo‘nalishlaridan biri davlatning bir qancha vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma – bosqich topshirish chora – tadbirlari hayotga tadbqiq etilmoqda.

2-§. O‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy jihatdan tartibga solinish holati

Mustaqillik tufayli milliy va ma’naviy qadriyatlarimiz qaytadan tiklana boshladi. Asrlar davomida tarix sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tib kelgan an’ana, udum va qadriyatlarimiz hayotga keng ko‘lamda tadbiq etilmoqda. Vatan timsoli bo‘lgan mahallani rasman qaror toptirish va yanada takomillashtirish davlat siyosati darajasidagi vazifa qilib belgilandi. Mahallaning milliy shakli va maqomi to‘laqonli tarzda qayta tiklandi va mohiyati ham tubdan yangicha o‘zgardi. “Davlatchiligimiz tarixida birinchi marta “mahalla” tushunchasi Konstitusiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va maqomi qat’iy belgilab qo‘yildi”.¹

Bosh Qomusimiz - O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 105-moddasida qayd etilganidek: “Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

O‘zini o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolati doirasi qonun bilan belgilanadi”²

Yurtboshimiz I.A.Karimovning mahallalar istiqboliga alohida e’tibor berib, uni davlatimiz tayanchi, iymon-e’tiqod maskani, eng yaxshi insoniy fazilatlarini o‘ziga mujassamlashtiruvchi tarbiya o‘chog‘i deb qarashi ham bejiz emas, albatta. Yurtboshimiz mamlakatimizning qaysi viloyatiga bormasin, dastlab mahalla faollari, keksalardan qo‘l ochib duo qilishlarini so‘raydi. Vaqti-vaqti bilan mahalla oqsoqollarini yig‘ib maslahatlashishida ham chuqur ramziy ma’no mujassam, albatta. Bu shubhasiz mahalla qariyalarini e’zozlash va ardoqlashning yorqin namunasi hisoblanadi.

Mahallada barcha barovar kim qanday lavozimda ishlamasin, qaysi tabaqaga mavqeidan qat’iy nazar, bu yerda eng avvalo insoniy xislatlari bilan baholanadi. O‘zbek davlatchiligi taraqqiyotining asosi, insonning barkamol bo‘lib

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch .T., 2008. B.59

² O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T., 2010, B.29

shakllanishida muhim dargoh va adolatli boshqaruvni xalqning o'zi yuzaga keltirgan. Mahallalarga ham jahondagi birorta mamlakat rahbari yurtboshimizdek o'zining asosiy e'tiborini qaratmagan. Respublikamizda bu sohada ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan 1992 yil 12 sentabrda Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasini tashkil etildi hamda Farmon qabul qilindi. Bu mahallaning tarbiya o'chog'i ekanligini yana bir karra isbotlab, uning zimmasiga istiqlol davri talablaridan kelib chiqib, yangi vazifalar yuklandi hamda mahallaning maqomi yana kuchaytirildi.

Asrlar osha shakllangan milliy, ma'naviy qadriyatlarini e'zozlash, izchil targ'ib qilish, xalqimizning eng ezgu udum va an'analarini keng ko'lamda takomillashtirish, Respublika mahallalari o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish uningdek, ularni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yanada mustahkamlash choralari davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash maqsadida mazkur jamg'arma tashkil etildi.

Respublika aholisining azaliy udum va an'alarini avaylab-asrash va boyitishga har tomonlama ko'maklashish, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, yetimlar va yolg'iz qariyalarga nisbatan insonparvarlik va mehr-shafqat munosabatida bo'lish g'oyalarini targ'ib qilish, ularga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirishga ko'maklashish mazkur jamg'armaning eng asosiy vazifalari hisoblanadi.

Jamg'arma shu paytgacha yuqoridagi vazifalarni muvaffaqiyat bilan uddalab kelmoqda. Hozirgi davrda shahardagi ko'p qavatli binolar joylashgan hududlar-mitti tumanlarda ham yangi mahallalar tashkil etildi. Respublikamizdagi boshqa qardosh xalqlar vakillari ham mahalla sharoitini chuqur anglab yetmoqdalar. Elda obro'ga ega bo'lgan tashabbuskor va ilg'or fikrli oqsoqollar rahbarlik qilayotgan mahallalarda jamoatchilik fikri katta ma'naviy kuchga aylandi.

1993 yil 12 sentabrda qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun mazkur sohani tubdan qayta takomillashtirishning mezonini belgilab berdi. Ko'p o'tmay mamlakatimizda 10 mingdan ziyod mahalla

qo'mitalari shakllantirildi. Mazkur Qonun 1999 yil 14 aprelida esa yangi tahrirda qabul qilindi. Qonunda ma'lum bir hududda birlashgan jamoa o'zini-o'zi boshqarish idoralarini ma'lum turar joy mavzesi-qishloq, qo'rg'on, ko'cha doirasida tashkil etadi, deb qayd qilingan.

Mazkur qonunga ko'ra, O'zbekistonda xalq deputatlari sobiq qishloq, posyolka (qo'rg'on), ovul kengashlari va mahalla qo'mitalari negizida fuqarolar yig'ini tashkil etildi hamda yig'in raislari (oqsoqollar), ularning maslahatchilari 2,5 yilga saylanadigan bo'ldi. Bu hujjatda fuqarolar yig'inida qaror qabul qilishga imkon beruvchi huquqiy negizlar ko'rsatilgan. Fuqarolar yig'ini, unda ishtirok etish huquqiga ega bo'lganlarning kamida yarmi, aholisi mahallalarda o'tkaziladigan vakillar majlisi esa delegatlarning uchdan ikki qismi qatnashganda qonuniy kuchga ega bo'ladi. Qarorlar ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi va tegishli mahalli hokimiyatga yuboriladi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan hujjatlar jumlasiga 1998 yil 23 apreldagi "Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Prezident farmoni ham kiradi. Shuningdek 1999 yil 13 yanvarda Prezidentning "Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Respublika Vazirlar Mahkamasining "Mahalla posboni jamoa tuzilmalari to'g'risida"gi hamda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtiruvchi komissiyalari to'g'risida"gi qarorilari 1999 yil 19 aprelda Nizomlari tasdiqlandi. Shuningdek, 2002 yil 16 dekabrda Prezidentning "Obod mahalla yili" dasturini ishlab chiqish va amalga boshqarish bo'yicha Respublika komissiyasini tuzish to'g'risidagi farmoyishi qabul qilindi. 2003 yil 7 fevralda Respublika Vazirlar Mahkamasining "Obod mahalla yili" dasturi to'g'risidagi 470-sonli qarori chiqdi va mazkur qaror tasdiqlandi. 2006 yil 25 dekabrda O'zbekiston Oliy Majlisi Senati "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirishga doir 2007-2008 yillarga mo'ljallangan harakat Dasturi to'g'risida"gi qarori ham muhim ahamiyatga molik bo'lgan hujjat hisoblanadi.

Mustaqillik sharoitida davlatchilikning milliy shaklini qayta tiklashga, mamlakatimiz xalqlarini ijtimoiy turmushida an'ana va udumlardan yanada samarali foydalanishga intilish yanada kuchaydi. Bular hammasi mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga doir huquqiy qoidalar va ular faoliyatini mahalliy sharoitga moslashtirishga, ortiqcha rasmiyatchilikka barham berishga va aholini jamiyatni boshqarishga mumkin qadar faol ishtirok etishiga yaqindan ko'maklashadi.

Bosh Qomus-Konstitusiyamizning 105-moddasiga va «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunga ko'ra mahallalar o'z huquqiy maqomiga ega bo'lib, mahalliy hokimiyat tarkibiga kiradi. Xullas, mahallalar davlatimizning muhim tayanchi, yuridik shaxs sifatida o'z mol-mulkiga, byudjetiga va bankdagi jamg'armasiga egadir. Har bir mahallani o'z hududida ishlab chiqarishni tashkil etishi mahsulotini sotishi va bir qismini ehtiyojmandlarga bepul tarqatishi, aholini ish bilan ta'minlashi, ularga madaniy maishiy xizmat ko'rsatishi ham qonunlarda o'z yorqin ifodasini topgan.

Mahalla yig'ini o'z hududidagi korxonalar, tashkilot va muassasalarga otaliq yordami ko'rsatishni va kichik korxonalar faoliyatini nazoratini o'z zimmasiga oladi. Uy-joy qurilishi, ta'mirlash ishlarini olib borish, madaniy-maishiy xizmat, savdo shaxobchalarini tashkil etish ham mahallaning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Mahalla qo'mitalari bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida o'z faoliyatlarini tashkil etishlari uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. Ular oldi-sotdi, to'y-maraka marosimlarini o'tkazish, hasharlar uyushtirish, oilaviy nizolarni bartaraf etish va bemorlar, nochorlar holidan xabar olish ishlari bilan doimiy ravishda mashg'ul bo'lmoqdalar.

Ko'pchilik mahallalar hududida masjid va turli ma'rakalar o'tkazish uchun kerakli jihozlari ham mavjud. O'z guzarlariga ega bo'lgan mahallalarda madaniy maskan-choyxona, nonvoyxona, do'konlar joylashgan. Shuningdek, o'jalik va madaniy qurilish tadbirlarini amalga oshirish, uning hududini obodonlash-tirish, uy-joylarni toza ozodaligini ta'minlash, tartib-intizomni mustahkamlash tashabbuskor sifatida o'z faoliyatini izchillik bilan amalga oshirmoqdalar.

Bozor iqtisodiyoti davrida mahalla aholini ijtimoiy himoyalashda eng asosiy tayanch bo‘lmoqda. Zero, Yurtboshimiz olg‘a surgan va endilikda jahonda tan olinayotgan «O‘zbek modeli»da e’tirof etilgan besh tamoyilning tarkibiy qismlaridan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda asosan fuqarolar va mahalla manfaatlari ko‘zda tutilgan edi.

Prezidentimiz uqtirganidek: “Mahallani aholisi aniq yo‘naltirilgan asosda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesini rivojlantirish markazga aylantirish bo‘yicha boshlagan ijobiy ishlarimizni izchil davom ettirishimiz va yangi bosqichga ko‘tarishimiz darkor”¹

Davlat siyosatini amalga oshirishda ham mahallalarni faol ishtirok etayotganligini mahalliy va Respublika Oliy Majlisiga bo‘lib o‘tgan saylovlar yaqqol ko‘rsatdi. Mahalla faollari say harakatlari tufayli milliy mafkurasi g‘oyalari mahalla orqali singdirilmoqda. Respublika rahbariyati olib borayotgan izchil siyosat, Farmon va qonunlarni ommaga tushuntirishda keng ko‘lamli samarali targ‘ibot ishlari olib borilmoqda.

Mamlakat hayotiga doir har qanday siyosiy, ijtimoiy va ma‘naviy tadbirlar asosan mahalla ishtirokida o‘tkazilmoqda. Mustaqillik, «O‘qituvchilar va murabbiylar», Konstitutsiya, Navro‘z, Xotira va qadrlash kuni» kabi zamonaviy bayramlar, Ramazon va Qurbon hayitlari marosimlari eng avvalo mahallalardan boshlanadi. Mahalla bevosita obodonchilik, ko‘kalamzorlashtirish, sog‘lom avlod tarbiyasi, tinchlik, osoyishtalikni ta‘minlash kabi dolzarb masalalar bilan shug‘ullanmoqda.

Ko‘pgina mahallalarda turli millat va elat vakillari yashaydi. Shuning uchun ham bu go‘shani xalqlar do‘stligi maskaniga qiyos qilish mumkin. To‘y va ta‘ziralarda mahalla faollari qo‘ni-qo‘shnilar bilan bel bog‘lashib, bir-biriga yordam beradilar. Mahallalarda yashovchi har bir inson jamiyatda tutgan mavqeidan qat‘iy nazar, keksayganda bir narsadan ko‘ngli to‘q bo‘la boradi, ya‘ni vaqti-soati yetgach, xotirjam oyoq uzatib ketadi. Marhumni mahalladoshlari

¹Karimov I.A. Mamlakatni modernizasiya qilish va kuchli suveren jamiyat barpo etish ustuvor maqsadimizdir. “Xalq so‘zi”, 2010 yil 28 yanvar.

hurmat bilan so'nggi oxirgi yo'lgacha kuzatib qo'yadilar va xotirasini doimo yodda saqlaydilar. Bu insoniylik zamirida ham yuksak ma'naviyat va oliyjanoblik yotadi, albatta.

Mamlakatimizda 10 mingdan ortiq o'zini o'zi boshqarish organlari mavjud, bulardan 8349 tasi mahallalardir. Har bir mahallada o'rta hisobda 2,5-3 ming kishi yashaydi, ya'ni 600-750 xonadon joylashgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida 5 ta qo'rg'on, 373 ta mahalla, 147 ta qishloq fuqarolar yig'inlari, jami 525 ta fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari say harakatlari tufayli mahallalarning qiyofasi tubdan o'zgarmoqda.

Endilikda fuqarolar o'z muammolarini hal etish uchun to'g'ridan-to'g'ri mahalla oqsoqoliga murojaat qilmoqdalar. Mahalla yoshlarni tarbiyalashda ham faol ishtirok etishib, o'z hududlaridagi ta'lim-tarbiya muassasalariga yaqindan ko'maklashmoqdalar.

Mahallalar ish faoliyati chet mamlakatlar arboblarning e'tiborini tortgani ham bejiz emas. Xorijlik tadqiqotchilar mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikning eng asosiy vositasi mahalla ekanligini ochiqdan-ochiq tan olmoqdalar. Mahalla fenomeni xalqaro huquqiy «TASIS» dasturi doirasida xorijiy ekspert va mutaxassislar tomonidan o'rganib chiqilib, bu tuzilmaning davlat bilan xalqni bog'lab turuvchi ishonchli vosita ekanligi e'tirof etildi. Ular xalqni boshqaradigan, tarbiyalaydigan hamda omma aqlu zakovati, tarixiy tajribasi asosida yaratilgan ushbu institutning ahamiyatiga yuksak baho bermoqdalar.

AQShdagi Glinleyd shahrining polisiya departamenti boshlig'i Stiv Konrad "O'zbekistonda "Xabeas Korpus" tizimini joriy etish bilan bir qatorda, mahalla deb nomlangan "an'anaviy yacheyka"ning huquqni muhofaza etuvchi organlar bilan birgalikda faoliyat ko'rsatish bizni hayratga soldi. Bunday yacheykalar AQShda mavjud emas. Biz uchun O'zbekistondan o'rganish mumkin bo'lgan taraflar bor".¹

Nufuzini jahonda ko'pchilik tan olayotgan O'zbekiston mahallalari faoliyati odil fuqarolik jamiyati to'g'risidagi tasavvurlarni ham takomillashtirmoqda. Shu boisdan ham xorijiy tashkilotlar mahallalar faoliyatini o'rganishga kirishdilar.

¹ "Fuqarolik jamiyati", 2008. №4., B-15.

BMT guruhlari, ko‘plab xalqaro jamg‘armalar, markazlar, Germaniya, Yaponiya singari rivojlangan mamlakatlar tashkilotchilari O‘zbekistondagi bunday o‘ziga xos boshqaruv tizimining tajribalarini sinchiklab o‘rganmoqdalar.

Demak, mahalla milliy qadriyatlar sifatida ham xalqimizni jahon hamjamiyatidan o‘z o‘rnini barqaror topishiga va mustahkamlanishiga yordam beradi.

Bizningcha, hozirgi davr dolzarb muammolarini hal etishda mahallalar imkoniyatlari yanada samarali bo‘lishi lozim. Masalan, jinoyatchilikni oldini olish yoki aybdorni ma‘lum darajada jazolashda mahalla yig‘inining tarbiyaviy ta‘sir kuchi nihoyatda salmoqlidir.

Mahalla oilalardagi salbiy holatlarni oldini olish, jinoyatchilik sodir etganlarni to‘g‘ri yo‘ldan adashganlarni tarbiyalashda asosiy kuch bo‘lib xizmat qilishi lozim. Chunki har qanday tartibbuzar yoki jinoyatchi ham mahallada tug‘ilgan va voyaga yetgan. Mahalla, el nazoratidan hech kim chetda qololmaydi, albatta.

Hozirgi davrda mahalla to‘y- ma‘rakalar va dafn marosimlarini tashkil etishda faol ishtirok etmoqda. Ammo mahalla oqsoqollari to‘y tantanalarni o‘tkazish bilan ko‘proq mashg‘ul bo‘lib qolmoqdalar. Ba‘zi joylarda to‘y-hashamlar, oilaviy tantanalar va marhumlar xotirasiga bag‘ishlangan marosimlarni o‘tkazishda ortiqcha dabdababozlik, isofgarchilik, xalq udum va an‘analarini nazar-pisand qilmaslik kabi salbiy holatlar uchramoqda. Bu noxushliklarning ayniqsa yoshlar tarbiyasiga jiddiy ziyon yetkazishi tabiiydir.

1998 yil 28 oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bu sohada qabul qilgan PF-2100-sonli Farmonida¹ to‘y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma‘raka va marosimlarni, marhumlar xotiralariga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazishda mamlakatimizning ko‘p joylarida shuhratparastlik, dabdababozlik, isrofgarchilikka yo‘l qo‘yish, el-yurt odatlari va an‘analarini mensimaslik, o‘zini-o‘zi ko‘z-ko‘z qilish, atrofda yashayotgan odamlarning hol-ahvolini inobatga

¹ «Xalq so‘zi», 1998 yil 29 oktabr.

olmaslik kabi eskidan qolgan asoratlarga yo‘l qo‘yilayotganligi ta’kidlangan hamda ularni bartaraf etish borasida aniq chora-tadbirlar ham belgilab olingan edi.

Bu borada ma’lum ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lsada, ammo sustkashlikka ham yo‘l qo‘yilmoqda. Yurtboshimiz tashabbusi bilan mahallalarda guzarlar tashkil etilmoqda, lekin sohada ham anchagina kamchiliklar mavjud.

Mustaqillik davrida mahalliy hokimiyat va fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlari vazifalarini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarini bir qismini bosqichma-bosqich o‘tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilmalari huquqi va mavqeini oshirish ko‘zda tutilgan «Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyat sari» tamoyili hayotga joriy etilmoqda. Aholining o‘z turmushi va butun jamiyat hayotini boshqarishni tashkil etish borasidagi fuqarolik jamiyati tamoyillariga to‘liq mos keluvchi shart-sharoitlarni yaratish, G‘arb xalqlari uchun notanish, ammo milliy tabiatimizga mos bo‘lgan o‘zini-o‘zi boshqaruv shakli-mahallani rivojlantirish va mavqeini oshirish keng ko‘lamda olib borilayapti. Prezident I.A.Karimov fikricha, mahalla sharqona demokratiya o‘chog‘iga aylanishi lozim.

Mahalla aholining shunchaki, istiqomat qiladigan joyi bo‘libgina qolmasdan, balki yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda eng asosiy ishonchli maskan va qo‘rg‘on sifatida xizmat qilmoqda. Yosh avlod mahalla oqsoqollarining salobatlari ta’sirida o‘zlarini turli nomaqbul hatti-harakatlardan tiyadilar. Ro‘zg‘orning risoladagidek bo‘lishi, er xotinning tinch-totuv, piru badavlat va uvali-juvali bo‘lib yashashida mahallaning ta’siri kuchlidir.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan mahallaning fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatidagi roli va ahamiyatini oshirish, milliy qadriyat va an’analarni, o‘zaro mehr oqibat tuyg‘ularini mustahkamlashdagi nufuzini ko‘tarish, aholini moddiy va madaniy jihatdan jihatdan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda 2003 yil «Obod mahalla yili» deb e’lon qilindi¹. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 16 dekabrda Farmoyishida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar asosida 2003 yil 7 fevralda Respublika Vazirlar Mahkamasining «Obod mahalla yili» dasturi to‘g‘risidagi

¹ «O‘zbekiston ovozi», 2002 yil 6 dekabr.

qarori qabul qilindi.¹ Buning zamirida xalqimizga xos o'zini o'zi boshqarish tizimi, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi.

Mahallaning yangi mas'uliyatlariga taxminan, mahalla doimo har bir oila, har bir shaxs imkoniyat darajasida ish olib borishi uchun ma'naviy salohiyatga ega bo'lgan. Hozir esa mahallalarga o'zini-o'zi boshqarish organlari maqomi berildi. «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunning yangi 1999 yildan joriy etilgan yangi tahririga muvofiq, ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

-jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolar ishtirokini ta'minlash, ularning siyosiy-ijtimoiy va huquqiy madaniyatini oshirish;

-fuqarolarga boshqaruv tajriba va ko'nikmalarini orttirishda, savdo va turli maishiy xizmat turlari ko'rsatishda ko'mak berish;

-o'z hududida ijtimoiy-moddiy, iqtisodiy-xo'jalik, moliya, ma'naviy-ma'rifiy, tartib-intizom va ozodalik vazifalarini hal etishda aholini birlashtirish, turli turdagi faoliyatga safarbar qilish;

-davlat siyosatining joylardagi ijrochisi sifatida mahalliy hokimiyat organlariga yordam berish, ular hamda boshqa davlat muassasalari, nodavlat tashkilotlari va jamg'armalari bilan ko'p qirrali hamkorlikda bo'lish, uni rivojlantirish;

-fuqarolarning maishiy hayot va yurish-turishlarini insonparvar, milliy qadriyatlarimiz hamda xalqimizning qarashlariga zamon talablariga mos keladigan yangi namunaviy an'analar bilan to'liq uyg'unlanishiga erishish;

-hudud aholisining huquq hamda manfaatlarini muhofaza etish, oila negizini mustahkamlash.

Ushbu faoliyat turlaridan ko'rinayaptiki, bizga jamoa tartibida yashash va bunyod etish mosdir. Mahallaga alohida diqqat-e'tibor qaratilayotganligining boisi ham shunda. Zotan, bugungi kunda mahallalar davlat boshqaruvining birinchi bo'g'ini, asosiy ustuni sifatida e'tirof etilayotgani ham bejiz emas, bu go'shada ulg'aygan farzandlar yurtni va jamiyatni ravnaq toptirishga, taraqqiy ettirishga

¹ «Xalq so'zi», 2003 yil 8 fevral.

xizmat qiladi. Kam ta'minlangan va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga hamda ko'p bolali oilalarga moddiy yordam ko'rsatish ijrosida mahalliy hokimiyat va o'zini-o'zi boshqaruv tizimlarini huquqlari hozirgi kunda kengaytirildi. Kamxarj va serfarzand oilalarga mahallalar orqali nafaqa to'lash uchun har yili mablag' sarflanmoqda.

Prezidentimizning to'y-hasham va marosimlarni o'tkazishda shuhratparastlik, dabdababozlik va isrofgarchilikka barham berishga oid qabul qilingan farmonning ijrosida «Mahalla» xayriya jamg'armasiga, uning bo'lim va bo'linmalariga, mahalla yig'inlariga katta mas'uliyatli vazifalar yuklatildi. Xalqimiz dilidagi orzu-istaklari bilan hamohang bo'lgan ushbu qarorda fuqarolar yig'inlari o'tmishining jirkanch sarqitlari-korrupsiya, poraxo'rlik, ish vazifasini suiste'mol qilish, to'rachilik yo'li bilan boylik orttirishga mukkasidan ketgan, isrofgarchilikka, qarshi kurash olib boribgina qolmay, diniy va dunyoviy namunaviy an'analarni keng xalq ommasiga yetkazishlari va singdirishlari dolzarb, hayotiy vazifa bo'lib turibdi. Xulosa qilib aytganda, hozirgi demokratik huquqiy davlat va odil fuqarolik jamiyatining barpo etishda oila-jamiyatini jipslashtiruvchi omil vazifasini o'tamoqda.

Qaror topayotgan o'zbekona demokratiya esa birinchi navbatda tobora yuksalayotgan o'zini-o'zi boshqarish tizimi- mahallalar orqali namoyon bo'lmoqda.

Darhaqiqat, tub islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshishida jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy manfaatlarini ta'minlashda odamlarning milliy va siyosiy ongining yuksalishida oila va mahallalarning o'rni beqiyosdir. Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlikni va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat

boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamiyatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim.¹

Fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyati institutlari tizimida muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda bunday tuzilmaning faoliyat yuritayotgani, uning huquqiy asoslarini takomillashtirishga, faoliyati ko'lamini kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratilayotgani huquqiy – demokratik jamiyatni barpo etish yo'lida yana muhim bir qadamdir. Ayniqsa, mahallalarda qadimgi an'anaviy o'zini o'zi boshqarish shakllari saqlanib qolgani uning nechog'li noyob institutligidan dalolatdir.

Mahalla hamisha aholi yashaydigan yagona makon, an'ana va urf-odatlar, o'zaro muomala va huquqiy, oilaviy munosabatlar shakllanadigan joy bo'lib kelgan. U o'zida tinchlik va osoyishtalikni, o'zaro hurmat va izzat, do'stlik va hamjihatlik mezonlarini, mazmunli va farovon hayotni aks ettiradi. Bu mo'jaz maskanda kishilarning xatti-harakatlari, munosabat mezonlari, ijtimoiy munosabatlar, ta'lim- tarbiya, urf-odatlar qadimdan ahloq meyorlari asosida tartibga solingan. Fuqarolarning davlat, madaniyat va ta'lim tizimi bilan aloqalari mahalla orqali amalga oshirilgan.

Fuqarolar yig'inlarini jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylantirish, moliyaviy shart-sharoitlarni takomillashtirish borasidagi islohotlar istiqloq mahsulidir. Bundan tashqari, mahallaning tabiati demokratik tamoyillarga monandligi yurtimizda uning mavqeini keskin oshirish imkonini beradi. Bunday yangilanishlar O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamg'armasi respublika boshqaruvi uning hududiy bo'limlarining ham rolini oshirdi. Shu bois, avval mahalliy hokimliklar zimmasida bo'lgan o'ttizdan ortiq vazifalar ayni paytda mahallalar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Bugun yig'inlar aholining hayotiy va kundalik dolzarb muammolarini hal eta oladigan, ta'sirchan, el-yurt e'tirofiga sazovor tuzilmaga aylanib ulgurdi.

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T., 2010. B.45

Jumladan, obodonlashtirish, kasanachilikni rivojlantirish, ayniqsa k4ichik korxonalar va ishlab chiqarish muassasalarni barpo etish orqali aholini ish bilan ta'minlash, tomorqa yerlaridan unumli foydalanish, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga ko'mak berish va jamoatchilikni nazoratini o'rnatish masalalari shu yerda hal etilayotir. O'zini o'zi boshqarish organlari huzurida faoliyat olib borayotgan Yarashtirish komissiyasi tarkibida hamda yig'inning diniy ma'rifat va ma'naviy – axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi vazifasiga katta hayotiy tajriba va malakaga ega ayollar jalb etilmoqda. Bularning hammasi mahalla faolii yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Davlatimiz rahbari o'z nutqlarida mahalla institutini zamonaviy bosqichda rivojlantirishning quyidagi yo'nalishlarini ko'rsatib o'tdi:

-birinchidan, mahalla faoliyatining huquqiy bazasini takomillashtirish, uning samarali faoliyat yuritish mexanizmlari va vakolatlarini kengaytirish;

-ikkinchidan, mahallani aholini aniq yo'naltirilgan asosda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish;

- uchinchidan, boshqaruv organlari faoiyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda mahallaning vazifalarini kengaytirib borish;

-to'rtinchidan, joylarda amalga oshirilayotgan ishlardan jamoatchilikni keng xabardor qilish maqsadida davlat organlarining ini-o'zi boshqarish organlari bilan mustahkam hamkorligini ta'minlash;

-beshinchidan, mamlakatni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati qurishda mahallaniing o'rni va ahamiyati ortib borayotganini inobatga olgan holda, oqsoqollar va ularning maslahatchisi etib eng munosib nomzodlar saylanishini ta'minlaydigan fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollar) va ularning maslahatchilarini saylash tizimini yanada takomillashtirish.¹

Mahalla inson qalbida Vatan tuyg'usining shakllanishiga, milliy g'urning vujudga kelishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Mahallalardagi muhit orqali jamoat fikrini to'laroq aniqlash mumkin va bu hodisa O'zbekistonda o'ziga xos qudratli

¹ A.Saidov. Mahalla Milliy tarixiy qadriyat. – “Mahalla”, 2010 yil, 11 mart

bir porloq kelajagi, ijtimoiy ravnaqi va ma'naviy qudrati uning jamoa vakolatini va fuqarolik boshqaruv tamoyilining saqlanib qolishidan kelib chiqadi. Bu esa o'z navbatida o'zbekona o'zini o'zi boshqarish demokratiyasida ijtimoiy adolatini qaror toptirishning eng muhim omili bo'lib qoladi. Shu orqali saylov tizimimiz ham rivojlanib, yanada demokratlashib boraveradi. Mahalla odil fuqarolik jamiyat qurishimizda asosiy tayanchimiz bo'lib qolar ekan, uning vakolatlari va huquqlari kerak, zarur bo'lgan darajaga kengayib boradi, el-yurt osoyishtalik, farovonligi va jamoatchilik salohiyatining yuksalishi yo'lida xizmat qilaveradi.

II BOB. O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARI – JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI

1-§.Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini liberallashtirish hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish

O‘zbekiston davlat mustaqillikka erishgandan keyin dastlabki yillardan boshlab demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati rivojlantirishni tarkibiy qismi bo‘lgan uzoq strategik maqsadni ko‘zlaydigan “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” degan konsepsiyasi hayotga tatbiq qilish fuqarolik jamiyati institutlarining tizimining eng quyi bo‘g‘ini bo‘lgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat organi sifatidagi – mahallaning nufuzi va ta’sirini mustahkamlashni, ularning huquq va vakolatlarini yanada kengaytirishni taqozo etadi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishning noyob organlari – mahallaning roli va ahamiyatini umum e’tirof etilgan demokratik mezonlar talablari asosida sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarmasdan turib mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish hamda kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Xalqimizga xos yashash tarzi – mahalla kabi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishning noyob tizimini mustahkamlash, rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga mamlakatimizda istiqloq yillarida alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yurtboshimiz Oliy Majlis palatalarining 2005 yil 28 yanvarda bo‘lib o‘tgan birinchi qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati” degan tamoyilni yanada mustahkamlashda yana bir muhim vazifa – o‘zini o‘zi boshqarish organlari – mahalla, mahalla qo‘mitalari va qishloq fuqarolik yig‘inlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish lozim”,¹ – deb ta’kidladi.

Mustaqillik yillarida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining huquq va vakolatlarini jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va

¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T.13. T. 2005, B.181.

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bosqichma-bosqich o‘tkaza borish jarayoni izchillik bilan olib borilishi oddiy fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish ko‘lamini kengaytirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi yanada yuksalib borishiga olib keldi.

2002 yil 4 aprelda qabul qilingan “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Konstitusiyaviy qonunning 2-moddasiga muvofiq fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini har tomonlama mustahkamlash demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlaridan birini tashkil qiladi.

Mustaqillikning o‘tgan 21 yildan ko‘proq o‘tgan davr mobaynidagi tajribasi xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy mentalitetiga xos ijtimoiy boshqaruvning noyob va betakror idorasi bo‘lgan – mahalla tizimi boshqaruvning eng demokratik usuli ekanini to‘la tasdiqladi. Yurtboshimiz Asosiy Qonunimiz qabul qilinganligining 9 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqida jamiyatimiz rivojlanib, yuksak bosqichlarga ko‘tarilgani sari davlatning roli va ahamiyati tobora kamayib, o‘z o‘rnini jamoat va nodavlat tashkilotlariga, fuqarolar uyushmalari va idoralariga berishi to‘xtovsiz kuchayib borayotganini alohida ta’kidlagan edi. “Bizda shunday bir noyob, betakror ijtimoiy boshqaruv idorasi borki, uni hech narsa bilan solishtirib bo‘lmaydi. Bu – yuz yillar davomida rivojlanib kelayotgan va ayniqsa, mustaqillik davrida tubdan yangilanib, zamon talablari asosida takomillashib borayotgan mahalla tizimidir.”¹

Yurtboshimiz yurtimizning Asosiy Qonuni – Konstitusiya qabul qilinganligining 16 yilligi munosabati bilan so‘zlagan ma’ruzasida yuqoridagi zikr etilgan maqsad-vazifalarni amalga oshirish yo‘lida davlatning rolini izchil ravishda kamaytirib borish va ayni paytda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari – mahallaning faoliyati ko‘lami va vakolatlarini kengaytirish, aholi turli qatlam va guruhlarning tub manfaatlarini ifodalaydigan va himoya qiladigan siyosiy va

¹Karimov I.A. Qonunga hurmat, qonunga itoat hayotimiz mezonimiz bo‘lsin. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. T. 2002, B.157.

ijtimoiy institutlar, nodavlat hukumat tuzilmalar rolini kuchaytirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi, - deb ta'kidladilar.

O'zbek xalqi azaldan jamoa tuyg'usiga ega bo'lib jamoa tartibida yashash ularga xos xususiyatdir. O'zbek davlatchiligi tarixida ilk marotaba O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o'zini o'zi boshqarish organlari – mahalla tushunchasi kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi maqomi va o'rni qat'iy belgilab qo'yildi. Jamoa tartibda bizga xos xalqimizga xos. Mahalla xalqimizning necha yuz yillar mobaynida shakllangan an'analar, urf-odatlar turmush va tafakkur tarziga to'la mos tushadi.

Sharq olamida, Markaziy Osiyo sharoitida jamoa bo'lib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi, odamlarni bir-birini qo'llab-quvvatlab yaqin yelkadosh bo'lib yashashga barcha tabiiy-tarixiy zaminlar bor.

O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari demokratik boshqaruvini noyob shakli sifatida – mahalla o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega va mustaqillik yillarida mutlaqo boshqa ma'no-mazmun tobora takomillashib bormoqda.

Mustaqillik yillarida jamoat birlashmalari bo'lgan mahalla tizimi prinsipial jihatdan tubdan o'zgardi. Bugun mahalla jamiyatda mavjud manfaatlarni muvozanatga keltirishning, tinchlik, osoyishtalikni ta'minlashning, kishilarning jamiyat va davlatni boshqarishda ishtiroki ko'lamini kengaytirish, aholining aniq maqsadga qaratilgan ijtimoiy himoyasi, ijtimoiy-iqtisodiy faolligi yuksalishida mustahkam tayanch rolini o'tamoqda.

Istiqlol sharoitida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tom ma'nodagi o'z mohiyatini topdi, yagona mafkura asoratlaridan butunlay holi bo'lgan yangi ma'no va mazmun kasb etdi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyati institutlarining eng muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va uning asosida qabul qilingan qonunlari doirasida tegishli hududda aholi turli qatlamlarining sosial-iqtisodiy manfaatlari, huquq va

erkinliklarini muhofaza qilish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida odamlarning ixtiyoriylik asosida tuzilgan birlashmalari tizimini ifodalaydi.

Fuqarolar yig‘ini – shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridir.

Mustaqillik yillarida mamlakatni modernizatsiya isloh etish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishni izchil davom ettirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy meyor va tartibini belgilaydigan bir qator Qonunlar, Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlis palatalarining 2010 yil 27 yanvarda o‘tkazilgan qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining roli va ahamiyatini tobora oshib borishi masalalariga alohida to‘xtalib, quyidagi fikrni ilgari surdi.

“Fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyat va davlat qurilishi tizimidagi huquq hamda vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish masalasi ustuvor yo‘nalishga aylanishi zarur.”¹

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyulda qabul qilingan “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori² mahalla tizimining barkamol avlodni tarbiyalashdagi rolga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Mahallaning aholini aniq yo‘naltirilgan manzil asosida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kichik biznes va xususiy-oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lida boshlangan ijobiy ishlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarishdagi o‘rni va ta‘siri tobora ortib bormoqda.

¹Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish ustuvor maqsadimizdir. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarilish sari. T.18. T. 2010. B.141.

²O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2012, №25, 275-modda.

Boshqaruv idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishda mahallaning vazifalarini kengaytirib borish, davlat ijtimoiy dasturlarining joylarda tatbiq etilishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlardan jamoatchilikni keng xabardor qilish maqsadida davlat organlarining fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari bilan mustahkam hamkorligini bundan buyon ham doimiy ravishda mustahkamlab borish darkor.

Mustaqillik yillarida joylarda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki ko‘lamini kengaytirishda xizmat qiladigan mahalla tizimining mustahkam normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish yo‘lida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 21-moddasiga asosan “Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o‘z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega” deb belgilangan. Milliy qonunchiligimiz mazkur qoidani rivojlantirib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 32-moddasida fuqarolarning “davlat ishlarini boshqarishda...o‘z vakillari orqali ishtirok etish” huquqiga egaligi, shuningdek, “Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish... organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi”, - deb mustahkamlab qo‘yilgan.

Milliy davlatchiligimiz tarixida birinchi marta mahalla tushunchasi Konstitusiyaga kiritilib uning 105-moddasida shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi, deb mustahkamlab qo‘yilgan.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi va “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi Qonunlar asosida belgilab qo‘yilgan.

2004 yil 27 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuning 12-moddasining ikkinchi qismiga “Fuqarolar yig‘inining diniy-ma‘rifat va ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchisini tayinlaydi va 20-moddasiga “Fuqarolar yig‘inining raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari ikki yarim yil muddatga saylanadi. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) tegishli tuman, shahar hokimi bilan kelishilgan holda, maslahatchilar esa fuqarolar yig‘ini raisining (oqsoqolining) taqdimiga binoan saylanadi” degan o‘zgartishlar kiritildi.

Mamlakatimizda 2011 yil may-iyun oylarida fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqol) va uning maslahatchilari saylovi bo‘lib o‘tdi...

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-2008 yillarda “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari huzurida yarashtiruv komissiyalari, “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmalari tashkil etilishini, diniy ma‘rifat va ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilar lavozimining joriy etilishini va boshqa choralarni nazarda tutuvchi o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritilganligi jamiyat va davlat qurilishi tizimida mahallaning roli va ahamiyatini oshirish, joylarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning aniq vazifalarini hal qilish ishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Hozirgi kunda mahalla ilgari mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatiga kirgan ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatdagi 30 dan ortiq vazifani bajarmoqda.

Prezidentimizning “Respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2003 yilni “Obod mahalla yili” deb e‘lon qilinishi bilan Davlat dasturining ishlab chiqilishi, 2012 yil 9 iyulda qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari mehnatini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi¹ Farmoni kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishni jadal sur‘atlar bilan olib borishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Yuqorida nomi qayd etilgan Prezident Farmoniga ko‘ra

¹ O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami. 2012, № 28, 309- modda.

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari diniy-ma’rifiy va ma’naviy-ahloqiy tarbiya mahallalari bo‘yicha maslahatchilari lavozimlariga hamda “Mahalla posbonlari” rahbarlarining maoshlariga 2012 yilning 1 avgustidan 20 foizli ustama haq to‘lash nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis palatalarining 2010 yil 12 noyabrda bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisidagi, “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da fuqarolik jamiyatini institutlarining tarkibiy qismi bo‘lgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari – mahallaning faoliyatini tubdan isloh qilishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish yuzasidan prinsipial ahamiyatga molik takliflar ilgari surildi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko‘lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o‘zaro yaqin munosabatlarini ta’minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu vazifani hal qilishda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni”ga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallani aniq aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarni yanada kengaytirish uchun huquqiy asoslarni yaratish imkonini beradi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar 1999 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarining o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuniga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri qabul qilindi.¹ Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi:

– fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish; mahallaning vazifalari ko‘lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o‘zaro yaqin

¹ “Xalq so‘zi”, 2013...Aprel

munosabatlarini ta'minlash; mahallani aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markaziga aylantirish uchun sharoitlar yaratish; xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish; davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tizimida uning vazifalarini yanada kengaytirishning huquqiy asoslarni yaratish imkoniyatini beradi.

“Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi Qonunning¹ yangi tahrirda qabul qilinishi² fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning roli va ahamiyatini oshirishga yo‘naltirilgan qator muhim normalarni nazarda tutadigan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2013 yilni “Obod turmush yili” deb e‘lon qilinishi munosabati bilan qabul qilingan “Obod turmush yili” Davlat dasturini amalga oshirishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish munosabati bilan, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi va “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi Qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi.

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilib, 2013 yil aprelda yangi tahririning qabul qilinishi fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirishga, manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirishga, shuningdek, davlat organlari faoliyati ustidan jamoat nazoratini amalga oshirish tizimida mahallaning vazifalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Qonun bilan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirishdagi,

¹ “Xalq so‘zi”, 2013 yil, aprel

² Saidov A.X. Demokratiya darsxonasi. “Qashqadaryo”, 2013 yil, 26 fevral

kam ta'minlangan oilalarning farzandlari bo'lgan yoshlar nikohdan o'tayotganida hamda to'y tantanalarini o'tkazayotganida ularga moddiy yordam ko'rsatish, bolasi ikki yoshga yetmagan, ishlamayotgan onalarga, shuningdek, byudjet tashkilotlarida ishlaydigan onalarga va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nafaqalar tayinlash va to'lash kabi vakolatlari ancha kengaytirildi.

Fuqarolar yig'inlarining kengashlariga aholini, shu jumladan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj yolg'iz qolgan keksa fuqarolarni, pensionerlarni va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish, yoshlarga ishga joylashishda ko'maklashish masalalarida qo'shimcha vakolatlar berilmoqda.

“Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining¹ (yangi tahrirda) qabul qilinishi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga saylov tizimini yanada takomillashtirishga qaratilganligini, bu tizim katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan hamda aholining hurmati va ishonchini qozongan munosib fuqarolar raislar va ularning maslahatchilari etib saylanishini, shuningdek, fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi tizimini yanada demokratlashtirishning ochiqligini ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur Qonun bilan fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar belgilanmoqda, joriy etilayotgan tartibga ko'ra, fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlar o'z chiqishlarida kelgusidagi faoliyati dasturlarini e'lon qilishlari kerak.

Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovni tashkil etish va o'tkazishdagi vakolatlari kengaytirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Kengashi saylov o'tkazishning aniq muddatlarini hamda tayyorgarlik tadbirlarining tartibini belgilaydi.”

Bularning barchasi, shubhasiz, hayotimizda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari rolini yanada oshirish, fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini

¹ Saidov A.X. Demokratiya darsxonasi. “Qashqadaryo”, 2013 yil, 26 fevral.

yuksaltirish, mahalla va umuman, mamlakatimizda ro‘y berayotgan barcha voqealarga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashga ko‘maklashadi.

Mustaqillik yillarida “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati” sari dasturni amalda ro‘yobga chiqarishning tarkibiy qismi bo‘lgan davlat hokimiyati va boshqaruvi tuzilmalarning huquq va vakolatlarini jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkiloti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkaza borish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda yangi imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquq va vakolatlarini kengaytirish orqali aholi turli qatlamlarining davlat boshqaruvidagi ishtirokini, jamoatchilik va ijtimoiy nazorat funksiyalarining roli va ahamiyatini kuchli fuqarolik jamiyatini jadal sur‘atlar bilan rivojlantirishning ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda kuchaytirmasdan turib mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatni modernizasiya va isloh etishni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Davlatimiz boshlig‘i Konstitutsiya qabul qilinganligining 9 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqida “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish” konsepsiyasining ma’no-mazmunini yanada chuqurroq o‘rganish va uning yangi-yangi qirralarini ochib berish munosabati bilan olimlar oldida turgan dolzarb vazifalar haqida to‘xtalib, “Jamiyat rivojlanib, yuksak bosqichlarga ko‘tarilgani sari davlatning ko‘pgina vazifalari, shu jumladan, nazorat vazifasi ham, uning roli va ahamiyati ham tobora kamayib, o‘z o‘rnini jamoat va nodavlat tashkilotlariga, fuqarolar uyushmalari va idoralariga berishi, bu jarayon to‘xtovsiz kuchayib borishi zarur”,¹ - deb ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlisning 2002 yil 4 apreldagi VIII sessiyasidagi ma’ruzasida “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyatga o‘tish” degan shiorni amalda ro‘yobga chiqarish masalalariga to‘xtalib fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishida jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning o‘rni va ta’siri tobora

¹Karimov I.A. Qonunga hurmat, qonunga itoat hayotimiz mezon bo‘lsin. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. T.2002, B.157

mustahkamlanib borishida bir haqiqat doimo diqqat-e'tiborimizning markazida turishi zarurligini ta'kidladi.

“Ya'ni, har qanday davlat tizimi, uning apparati va ma'muriy organlari demokratik andozalarga qanchalik javob bermasin – baribir o'z kuchini, qolaversa, o'z zo'ravonligini o'tkazishga harakat qiladigan tizim bo'lib qolaveradi.

Shuning uchun ham davlat idoralari, avvalo, uning ma'muriy organlari va tashkilotlari ustidan jamiyat hamda fuqarolar nazoratini o'rnatish butun dunyoda qonunbuzarlikka, berilgan vakolat va vazifasini suiiste'mol qilishga, korrupsiyaga qarshi, ayni vaqtda, barcha o'zboshimchalik va volyuntaristik qarorlarni qabul qilishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbir, deb tan olinadi”¹

Aholining turli qatlamlari manfaatlarini, huquq va erkinliklari himoya qilishda, aholining jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtiroki ulushini kengaytiruvchi jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, nodavlat, nohukumat tashkilotlarining jamiyatdagi obro'-e'tibori ortib borishi, mavqeining mustahkamlanishi davlat va hokimiyat tuzilmalari ustidan jamoatchilik nazoratining mustahkamlanishiga olib keladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarmasdan turib jamiyatni demokratik yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishni hamda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyat sari” tamoyilni amalda ro'yobga chiqarib bo'lmaydi.

Qonunlar ijrosini ta'minlash, mamlakatda qabul qilingan qonunlar va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari hayotga izchillik bilan joriy qilishda davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbarining Oliy Majlisning 9 sessiyasida quyidagi diqqatga sazovor fikrni keltirish o'rinli bo'ladi.

“Shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini

¹ Karimov I.A. Yangilanish va o'zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydi. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.. T. 10. T.2002. B. 325-326.

qancha ko‘paytirsak, amaldorlarning zo‘ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo‘l yo‘q”.¹

Gegelning g‘oyasiga ko‘ra, pirovard natijadagi so‘nggi xulosa jamoatchilik fikriga bog‘liq.

Jamoatchilik nazorati – bu davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlari faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o‘zini o‘zi boshqarish, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari (institutlari), shuningdek, davlat va nodavlat organlari tarkibida tuzilgan jamoatchilik organlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazoratdir.

2002 yil 27 yanvarda o‘tkazilgan umumxalq referendumida bildirilgan xalq xohish-irodasini inobatga olib 2002 yil 4 aprelda qabul qilingan “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari”² to‘g‘risidagi Konstitusiyaviy qonunning 2-moddasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini har tomonlama mustahkamlash, davlat hokimiyati markaziy organlarining vakolatlarini joylardagi boshqaruv organlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish, ijro etuvchi hokimiyat organlari, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlikni ta‘minlovchi tuzilmalar faoliyati ustidan jamoat nazorati mexanizmini kuchaytirish demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir ishlarning asosiy prinsiplaridan birini tashkil qiladi.

Davlatimiz rahbarining 2012 yil 24 oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzurida Ijtimoiy kengash tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori Qurolli kuchlar faoliyatida ochiqlik va oshkoralik qaror topishiga, jamoatchilikning mudofaa va harbiy qurilishdagi islohotlardan kengroq xabardor bo‘lishiga ko‘maklashadi.

¹Karimov I.A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlari yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari. Biz tanlagan yo‘l demokratik taraqqiyot va ma‘rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T.2. T. 2003. B.28.

² O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002, №4-5, 60-modda.

Jamoatchilik nazoratining ma'lum shakllari O'zbekiston Respublikasi "Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to'g'risida"gi Qonunda¹ belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, fuqarolar bevosita yoki o'zlarining jamoatchilik tuzilmalari orqali qonun loyihalari muhokamasida ishtirok etish, ularni takomillashtirish borasida takliflar kiritish va Qonunchilik palatasi tomonidan tayyorlanayotgan qonun loyihalari muhokamasi bo'yicha qo'mitalar bilan aloqa o'rnatish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 mayda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan Tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmonida O'zbekiston tarixida ilk marotaba huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligida tashkil etilgan inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha bo'linmalar faoliyatini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilish va uning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida takliflar kiritildi.

2007 yil 11 aprelda qabul qilingan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashgan hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitusiyaviy Qonunining 7-moddasiga muvofiq² "Nazorat qilish vazifalari samaradorligini oshirish maqsadida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar Kengashlaridagi partiya guruhlariga viloyat va Toshkent shahar hokimi lavozimiga tasdiqlangan shaxslarning qoniqarsiz faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga asoslangan xulosalar taqdim etish tashabbusi huquqi beriladi. Bunday tashabbus yetakchi partiya guruhlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bu tashabbusning xalq deputatlari Kengashidagi muhokamasini tayinlaydi va muhokama natijalariga muvofiq qaror qabul qiladi."

¹O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001, №1-2, 14-modda.

²O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008, №12, 637-modda.

Prezidentimizning Konstitutsiya qabul qilinganligining 9 yilligi munosabati bilan soʻzlagan nutqida fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari-mahalla tizimining jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdagi roli har tomonlama chuqur tahlil qilib berildi: “Bizda shunday bir noyob, betakror ijtimoiy boshqaruv idorasi borki, uni hech narsa bilan solishtirib boʻlmaydi... Oʻzini oʻzi boshqarishning xalqimizga xos noyob usuli boʻlgan mahalla jamoatchilik nazoratini tashkil etishda shunday salohiyat va imkoniyatlarga egaki, biz ulardan hali-beri toʻliq foydalana olganimiz yoʻq. Binobarin, bu borada ham koʻp ishlashimiz kerak”.¹

Mustaqillikning keyingi oʻn yilligi mobaynida fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan taʼsirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi rolining ortib borayotganligi bilan ajralib turadi.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratining mavjudligi – fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan biridir. Fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq boʻlmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining oʻz faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi kuchli fuqarolik jamiyatini jadal surʼatlar bilan rivojlantirishda oʻta muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jarayonida davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga nisbatan aholining ishonchi oshib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻz navbatida, ushbu omil davlat va aholi oʻrtasidagi ijtimoiy hamkorlikning yuzaga kelishida muhim oʻrin tutadi. Binobarin, bunday ijtimoiy hamkorlikni shakllantirishda quyidagi uchta jihatga alohida eʼtibor qaratish lozim: hokimiyat organlari faoliyatining oshkora namoyon boʻlishi; davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish; fuqarolarni jamiyatdagi mavjud institusional nazorat tizimiga jalb qilish.

¹Karimov I.A. Qonunga hurmat, qonunga itoat hayotimiz mezon boʻlsin. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10, T.2002, B.158.

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati, avvalambor jamoat tashkilotlari – siyosiy partiyalar, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, iste‘molchilarning uyushmalari va boshqalar faoliyatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Binobarin, hokimiyat organlarining jamoat tashkilotlari orqali xalq bilan muloqoti demokratiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiy adolat qaror topishi uchun shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o‘zaro mas’uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Mazkur institut insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligini, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor ahamiyatga egaligini ta’minlaydi va bunda jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyatning tom ma’noda xalq qo‘lida bo‘lishining ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Jamoatchilik nazoratining mazmun va mohiyatini quyidagi yo‘nalishlar asosida tavsiflash mumkin:¹

1. Hokimiyat organlari faoliyatining doimiy tizimli monitoringini olib borish. Bu shakl asosan o‘tish davrida bo‘lgan va ijtimoiy-siyosiy tuzum o‘zgarayotgan davlatlarga xos bo‘ladi.

2. Hokimiyat organlari faoliyatiga oid manzilli monitoring olib borish. Masalan, ekologik jamoat tashkilotlarini davlat hokimiyati organlarining ekologik sohasidagi siyosatini nazorat qilishi.

3. Ijtimoiy muhim bo‘lgan qarorlarni qabul qilishda jamoatchilikning ishtiroki.

4. Hokimiyat organlari huzurida nazorat komissiyalarining, jamoatchilik kengashlarining tashkil etilishi va boshqalar.

Fuqarolik jamiyati institutlari jamoat nazoratini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatlari orqali davlatga nisbatan o‘ziga xos ta’sir kuchi yaratadilar. Jamoat tashkilotlari siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga, davlat va jamiyat qurilishi masalalariga hamda qabul qilinishi nazarda tutilayotgan qonun loyihalari va

¹ Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish. T. 2012. B.13.

hukumat qarorlariga o‘z munosabatlarini bildirishlari orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar.

Albatta, yuqoridagi masalalar eng avvalo, davlat hokimiyati organlari vakolatlari doirasiga kiradi. Shu bilan birga, jamoat tashkilotlarning ishtirokisiz davlat organlari o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarini samarali va to‘laqonli amalga oshirishlari qiyin. Bunday sharoitda jamoat tashkilotlari davlat bilan xalq o‘rtasidagi vositachi sifatida ijtimoiy muvozanatni yuzaga keltirish vazifasini o‘taydilar. Bunday vositachilik, shubhasiz, har ikki tomon uchun ham foydalidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamoatchilik nazoratining ahamiyati, uni yanada samarali tashkil etish ko‘p jihatdan nodavlat jamiyat tuzilmalari va uyushmalari, fuqarolik jamiyati institutlariga bog‘liq ekanligi, buning uchun esa ana shu tuzilmalarning mustaqilligini amalda ta‘minlash, ularning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berish hamda faolligini oshirishga ko‘maklashish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini to‘la ishlab chiqish o‘ta dolzarb masala ekanligiga e‘tibor qaratib quyidagi g‘oyani ilgari surgan edi: “Qonunlar ijrosini ta‘minlash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo‘lgan meyoriy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz “Adolat – qonun ustuvorligida” degan hayotiy tamoyilga qat’iy amal qilib yashashimiz zarur. Biz uchun bundan boshqa yo‘l yo‘q”.¹

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligini, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo‘lishini ham muayyan darajada ta‘minlaydi.

Jamoat tashkilotlari orqali olib boriladigan jamoat nazoratining ahamiyatli tomonlari va xususiyatlari quyidagi tamoyillarda namoyon bo‘ladi: jamiyat va shaxs manfaatlarining ustunligi; bunday jamoatchilik nazoratining keng qamrovliligi, ya’ni u ijtimoiy hayotning barcha jabhalari va sohalarida amalga

¹Karimov I.A.O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T.11.T.2003.B.28

oshirilishi; uning ommaviyligi, ya'ni har bir fuqaro va fuqarolar guruhlari uchun bunday nazoratda istisnosiz ishtirok eta olish imkoniyatining mavjudligi; undagi oshkoralik, ya'ni uni amalga oshirish jarayoni ham, uning natijalari ham barcha uchun ochiq oydinligi va bu nazoratning ommaning nigohi hamda kuzatuvida amalga oshirilishi; nazoratni o'tkazishning ixtiyoriylik va beg'arazlik asosida bo'lishi; uni amalga oshirish jarayonida davlat organlari, mansabdor shaxslar, xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatiga bevosita aralashmaslik va boshqalar.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 6 mingdan ortiq jamoat tashkilotlari yuqoridagi huquqiy asoslarga tayangan holda ijtimoiy hayotning turli yo'nalishlari sohasida muayyan darajada jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayoniga o'zlarining hissalarini qo'shib kelayotganligini ta'kidlab o'tish lozim. Prezidentimiz Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki boshqaruvchilar kengashi yillik yig'ilishining 2003 yil 4 mayda Toshkentda bo'lib o'tgan ochilish marosimidagi nutqida quyidagi fikrni ta'kidladi. "Biz nohukumat va jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirishga katta e'tibor bermoqdamiz. Nodavlat va jamoat tuzilmalarining, birinchi navbatda demokratik qadriyatlar, odamlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari va huquq-tartibot idoralari faoliyati ustidan to'rachilik va korrupsiyaga qarshi kurashning samarali vositasi bo'lgan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdagi o'rni ortib borayotganini ko'rib turibmiz."¹

Fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ildiz otgan ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis palatalarining 2012 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisdagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni

¹ Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. T. 2003, B.255.

chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi” talablaridan kelib chiqqan holda shaxs-jamiyat-davlat o‘rtasidagi munosabatlarni muvozanatga keltirish yo‘lidagi harakatlarimizni yanada kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarish fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi tuzilmalari ustidan jamoatchilik nazorati ortib borishining qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Shu munosabat davlatimiz rahbari “O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratini o‘rnatish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish vaqti kelganligini taklif etdi. Yuqorida nomi zikr etilgan qonuning qabul qilinishi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratish; jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subektlarini, nazorat predmetini belgilash; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini qonunda mustahkamlab qo‘yish; jamoatchilik nazorati sohasidagi amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini belgilab qo‘yish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2006 yil 11 oktabrda qabul qilingan “Qonun loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi” to‘g‘risidagi Qonunning¹ 16-moddasiga muvofiq qonun loyihasini tayyorlashda jamoatchilik fikrining natijalarini o‘rganish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 iyundagi “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida”gi Farmoni mamlakatimizda faol olib borilayotgan siyosiy-ijtimoiy, sosial-iqtisodiy va sud-huquq tizimidagi islohotlar to‘g‘risidagi jamoatchilik fikri shakllanishida muhim qadam bo‘ldi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2006, №10, 537-modda.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan jamoatchilik nazoratini oʻrnatishning samaradorligi fikri “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi tomonidan oʻtkazilgan soʻrovlarga bergan javoblarni oʻrganish orqali aniqlanadi.

Davlatimiz rahbari adolatli taʼkidlaganidek jamoatchilik fikri – fuqarolik jamiyatining holatini oʻzida aniq aks ettiradigan bamisoli bir koʻzgu. Mustaqillik yillarida Respublika “Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan aholining turli qatlamlarining mamlakatimizda amalga oshayotgan turli ijtimoiy-siyosiy, sosial-iqtisodiy va sud huquq tizimidagi islohotlarga doir munosabatlarni oʻrganishga bagʻishlangan muntazam ravishda oʻtkazib turiladi va natijalari “Ijtimoiy fikr”, “Inson huquqlari” nomli jurnalda eʼlon qilib boriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining 18 yilligi munosabati bilan “Ijtimoiy fikr” respublika markazi tomonidan “Islohotlar – ijtimoiy fikr koʻzgisida” turkumidagi soʻrovlar oʻtkazilib, sud-huquq tizimidagi islohotlarga bagʻishlab jamoatchilik soʻrovlari oʻtkazildi. Jamoatchilik soʻroqlari mustaqillik davrida Prezidentimiz tashabbusi va rahbarligida sud-huquq tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish va sudning mustaqilligini taʼminlash borasidagi islohotlarni xalqimiz qoʻllab-quvvatlayotganini yana bir karra namoyish etdi.

Mamlakatimiz aholisining koʻpchilik qismi Oʻzbekistonda oʻlim jazosining bekor qilinishi (96.6%) va qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga oʻtkazilishi toʻgʻrisidagi Qonunlarga (90.2%)ga ishonchi ortib borayotganligini taʼkidlamoqda¹.

¹ Реформы– в зеркале общественного мнения. “Правда Востока”, 2009. 8 августа.

2-§. O‘zbekistonda mahallaning tarixiy xotirani tiklash yo‘li bilan yoshlarning tarbiyasiga ta’siri

O‘zbek xalqi ijtimoiy hayotida bola tarbiyasini jamoaning o‘rnisiz aslo tasavvur qilib bo‘lmaydi. Jamoaviy an‘analar o‘zbeklar milliy mentalitetiga xos bo‘lib, jamiyatda odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy va ma‘naviy munosabatlarni belgilovchi muhim omil hisoblangan.

Har qanday oila o‘z imkoniyati doirasida yashasada, faqat jamoa orqaligina jamiyatga uzviy bog‘langan. Shu boisdan ham oilada barcha davrlarda jamoatchilik fikriga, qon-qarindoshchilik va hududiy qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlariga befarq qaralmagan. Qo‘ni-qo‘shnilar, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi hududiy, genetik yaqinlik bola tarbiyasida ham jamoa a‘zolarini bir-biriga o‘zaro ko‘makdosh bo‘lishga undagan. Har bir oilaning ijtimoiy ahvolini hech kim jamoa a‘zolari, ayniqsa qo‘ni-qo‘shnilar kabi yaqindan yaxshi bilishmagan. Ayniqsa, bu oila va jamoaning bola tarbiyasidagi o‘rnida ham yaqqol namoyon bo‘lgan.

O‘zbekiston janubidagi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida to‘plangan etnografik ma‘lumotlarga asoslangan holda, bolani jamoadagi o‘rni va ular bilan bog‘liq turli an‘analarning tarbiyaviy ahamiyatidan kelib chiqib, farzand tarbiyasi bilan bog‘liq davrni uch bosqichga ajratish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Birinchi bosqich- 3-5 yoshgacha davom etib, bu davrda bolada dastlabki tarbiya ko‘nikmalari paydo bo‘lgan. Bola jamoa orasida mustaqil bo‘lishga intilgan. Farzand tarbiyasi bilan endi faqat ota-ona, oila emas, balki qo‘ni-qo‘shnilar ham shug‘ullanishgan. Bola oilada yengil yumushlarni bajargan, o‘zini anglab, dunyoqarashida ham ilk axloqiy fazilatlar shakllana olgan.

Ikkinchi bosqich-5-9 yoshda o‘g‘il bolalar sunnat qilinishi (qo‘li halollanganligi) bois jamoaga qo‘shilishgan. Endi o‘g‘il bola bajaradigan jismoniy yumushlar diniy-axloqiy odatga ko‘ra «halol» sanalgan. Qiz bolalarga kattalar, asosan ayollar ko‘magida hayo, ibo, andisha, uyat, muloyimlik fazilatlarini o‘rgatila boshlangan. Qiz bola va o‘g‘il bolalar orasida jins tafovutlari yaqqol ko‘rinib, yosh

va jins xususiyatlariga ko'ra, o'g'il bolalar va qizlar jamoasiga ajralganliklari uchun o'g'il bolalar tarbiyasi bilan asosan erkaklar, qiz bola tarbiyasi bilan esa ko'proq ayollar shug'ullana boshlashgan. Qizlar uy-ro'zg'or yumushlariga to'la jalb etilgan bo'lsada, oilaviy va boshqa tadbirlarda ham qisman ishtirok etishgan.

Uchinchi bosqich-9-12 yosh bo'lib, bu davrda bolalar o'z jamoasiga to'liq qo'shilishgan va kattalar orasida o'zlarini erkin sezishgan. Udumga ko'ra bu o'tish davri hisoblanib, o'g'il va qiz bolalar tashqi ko'rinishi, kiyinishidagi tafovular aniq ko'zga tashlangan, yashash va ish joylari ajratilgan, tarbiyada mehnat tarbiyasiga e'tibor ayniqsa oshgan. Qizlar uy-ro'zg'or ishlaridan tashqari turli marosimlar, xalq sayillari, bayramlarda to'liq ishtirok etishib, mas'uliyat talab etadigan yumushlarga, jumladan, non yopish, dasurxon tuzash va saranjomlash, mehmonlarni kutish va kuzatishda ko'maklashish, urchuq yigirish, palos, kigiz, julxurs, gilam to'qish, jun titish, do'ppi, kashta tikish kabilarni uddalashga kirishishgan.

O'rganilayotgan hududda bolalarni jamoaviy marosimlarda ishtiroki, ularni jamoa, oilada qanday tarbiya topganligiga chambarchas bog'liq ekanligini isbotlaydi. Oilaviy marosimlar va jamoaviy tadbirlarda ayollar va erkaklar ishtirokida tafovutlar bo'lsada, bola tarbiyasida ayollar xususan, doya momo, kayvoni, dasturxonchi, otin oyi, bibi xalfa va onaning o'rni o'ziga xos bo'lgan. Asosan oilaviy marosimlar bolalar ishtirokisiz o'tmagan. Unga oila a'zolari, yaqin qarindoshlar puxta tayyorlanishgan, belgilangan vaqtda qo'ni-qo'shni ayollar shirinliklar, non, patir, qatlama, somsa va boshqa turli pishiriqlar tayyorlab kelishgan. Bolalarning dasturxon atrofida o'tirishlari ularda ma'naviy-axloqiy fazilalarni, jamoada, oilaviy davralarda o'zini qanday tutish ko'nikmalarni shakllantirgan.

Bola birinchi bor atrofdagilar bilan mustaqil so'zlasha boshlagach, oila a'zolari, ayniqsa, ota-onalar ularga birinchi bor axloqiy ko'nikmalar va diniy saboq berib, Qur'ondan kichik oyat va suralarni ham o'rgata boshlashgan.

Demak, bolalarda odob-axloq, uyushqoqlik, jamoaga intilish kabi dastlabki ko'nikmalar hududiy qo'ni-qo'shnilar, yaqin qarindoshlarning o'zaro

munosabatlari orqali shakllana boshlagan. O'zbeklar hayotida bolalarni yoshi va jinsiga qarab guruhga bo'linishi ularda ma'lum ijobiy xulq-atvorlarni vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Mintaqa qishloq jamoasida o'g'il bola tarbiyasining etnohududiy xususiyatlarini tahlil etsak mintaqada o'zbeklarni oilaviy turmushida hamda jamiyat hayotida qo'shilishga intilishgan. O'g'il bolalarning erkaklar safiga qo'shilishida yosh xususiyatlari muhim bo'lib, besh yoshdan so'ng ular jamoaning mustaqil a'zosi sifatida oilaviy turmushda, marosimlarda mustaqil qatnasha olishgan. Tadqiqotlar davrida XIX asr oxiri-XX asr birinchi yarmida mintaqada bolalarning yo'shva jins xususiyatlariga ko'ra mehnat taqsimoti vujudga kelganligi ham aniqlandi.

Oila va jamoa a'zolari davrasida o'tkazilgan marosimlarda oila xo'jaligi va jamoa turmushiga doir masalalar o'z yechimini topib, bolalar ishtiroki ularda ahillik, jamoaviy uyushqoqlik, o'zaro yordam munosabatlarini shakllantirgan. Bolalar tengqurlari orasida kattalarga taqlid qilarkanlar jo'ra-o'rtoqchilik orqali o'zlarining «kichik jamoa»larini tuzganlar. Kimdir oqsoqol, kimdir ota-ona, shuningdek, yana kimdir ish boshqaruvchi bo'lib, dastlabki kattalarga xos xislatlari shakllangan. Oilaviy marosimlar, jamoaviy yig'inlar, bayramlar, sayillar, choyxonalar, masjidlar, mahalla guzarlaridagi boshqa turli jamoaviy tadbirlar dastlabki eng asosiy tarbiya vositalari vazifasini o'tagan.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida O'rta Osiyoning barcha xalqlarida erkaklar uylari mehmonxona-olovxona, gapxona, gap-gashtak, jo'ra (do'st-birodarlar jamoasi), ko'na o'tirishlar, to'qma, jo'rabozi kabilar muhim jamoaviy yig'inlar bo'lib, bunday tadbirlarda bolalar ham ishtirok etishgan.

Taniqli elshunos olimi Z.H.Orifxonovanning yozishicha, Toshkent shahrida gap o'tkazishda jins, yosh chegaralari mavjud bo'lib, gaplar asosan yoshlar, o'rta va katta yoshdagi erkaklar o'rtasida o'tkaziladi. Masalan, yaxshilardan saboq-tarbiya olsin, degan maqsadda katta yoshdagi kishilar o'z davralariga farzandlarini ham olib keladilar. Yoki vafot etgan otaning o'rniga gapga uning o'g'lini taklif

qilish hollari ham uchraydi. Bundan tashqari ko‘pincha gap ishtirokchilari bo‘lmagan yoshlar unda xizmat qilish uchun alohida qatnashadilar¹.

Mintaqaning yarmi o‘troq chorvador hamda o‘troq aholisi orasida bunday yig‘inlar, tadbirlar asosan o‘tirishlar yilning kuz, bahor, qish faslida mavsumiy o‘tkazib turilgan. Mehmonxonani o‘ziga to‘q kishilar sahovat uchun yoki har bir to‘p yoki mahalla hashar yo‘li bilan qurishgan. Mehmonxonasi bo‘lmagan joylarda gashtaklar navbat bilan xonadonlarda uyushtirilgan².

Mahalla guzarida joylashgan mehmonxonalar jamoa a‘zolari marosimlar o‘tkazadigan, mehmonlar dam oladigan, erkaklar gashtak va boshqa jamoa yig‘inlari o‘tkazadigan joy hisoblangan. Albatta bunday tadbirlarni kuzatgan o‘spirinlar erkaklardagi har qanday fazilatni o‘zlashtirib olishga harakat qilishgan. O‘spirinlar kattalar qanday harakat qilsalar shunday bo‘lishga intilganlar. Bu hol ba‘zan bolalarda salbiy ko‘nikmalarni ham hosil bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Chunki yig‘inda albatta ta‘sir ko‘rsatgan. Ammo mintaqadagi keksa axborotchilarimizning ma‘lumoticha, ziyofat o‘tkazilayotgan xonadonda yosh bolalarni kiritishga yig‘in a‘zolari yo‘l qo‘yishmagan. Chunki mehmonxona atrofida o‘g‘il bolalar yoshiga mos yumushlar bilan mashg‘ul bo‘lishgan, ko‘pincha kechqurungi yig‘inga o‘spirinlar umuman jalb qilinmaganlar ham.

Mehmonxona boshlig‘i alohida tartibda o‘tkaziladigan marosim oldidan o‘g‘il bolalarga tarbiya haqida, jumladan insonning burch va vazifalari, odob-axloq to‘g‘risida pand-nasihatlar qilgan va ularning yoshiga qarab zarur yumushlarni taqsimlangan.

Mehmonxonalar qadimgi davrda shakllangan bo‘lib, bu jamiyatda erkaklarning yuqori mavqega ega bo‘lishi uchun kurash shakllaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ular «erkaklar uylari» deb atalgan maskanlarning transformasiyaga uchragan ko‘rinishi bo‘lib, bolalarning axloqiy tarbiyasida o‘ziga xos o‘rinda turgan. Etnografik ma‘lumotlarga ko‘ra XX asrning 30-yillaridagi siyosiy qatag‘onlar va dinga qilingan tazyiqlar hamda ikkinchi jahon

¹ Orifxonova Z.H. Hozirgi davrda Toshkent shahridagi erkaklar va ayollarning an‘anaviy yig‘inlari- «O‘zbekiston tarixi», 2001 yil 1-son, B.73

² Bo‘riyev O. O‘g‘il ulfat ko‘rganmi// «Fan va turmush», 1993 yil. 3-son. B.10-11

urushi davridagi moddiy qiyinchiliklar mehmonxonalaridagi yigʻinlarga ham oʻz taʼsirini oʻtkazgan.

Mehmonxonadagi xalfana va oʻtirishlar mavsumiy, asosan kuz va qish paytlarida davom etgan. Ulfatlar gashtak yoki navbat bilan beriladigan ziyofatlar bahonasida bolalarini olib mehmonxonaga chiqish, turli suhbatlar oʻtkazishgan, ertak va topishmoqlardan soʻng bolalar oʻrtasida navoiyxonlik, bedilxonlik oʻqishlari uyushtirilgan.

Anʼanaviy erkaklar yigʻinlaridagi bunday uyushqoqlik hozirgi kunda asosan kattalar orasida oʻtkazilib kelinsada, koʻproq ularning koʻngil ochishi, dam olish tadbiri hisoblanganligi bois unga yosh bolalar taklif etilmaydi. Bunday yigʻinlar shaharlarda «joʻraboshi»lar tomonidan nazorat qilinadi¹.

Mintaqaning aksariyat oʻzbeklar yashaydigan hamda etnik aralash qishloqlarda oʻsmir bolalar turli tadbirlarda va oilaviy marosimlarda oʻtish tashish, yorish, qoʻlga suv quyish, choy qaynatish yumushlarini bajarganlar. Mintaqa aholisida bolalik chogʻida har bir oʻsmir maʼraka va marosimlarda qoʻliga oftoba, dastshoʻy olib, yelkasida sochiq tutib davradagi mehmonlar qoʻliga suv quyib chiqishni bilishi kerak boʻlgan. Mehmonlar uzoq masofadagi toʻy va maʼrakalarga koʻproq ot va eshakda borganlar. Maslahat kengash, toʻy, xudoyi, iftorlik, qurbonlik marosimlarida ot-ulovlarni bogʻlash, qariyalarni marosim soʻnggida kuzatib qoʻyishni ham kattalar bilan birga oʻgʻil bolalar bajarishgan. Anʼanaviy oʻzbeklar jamoasi, doimo kishilar orasida maʼnaviy tamoyillarga asoslangan odob-ahloq tizimini yaratgan. Bola tarbiyasiga oid urf-odatlar xalqning umumetnik jihatlarini oʻzida mujassam etadi. Shu boisdan ham xalqimiz maqolida «Otang-mahalla, onang mahalla», «Bir bolaga yetti qoʻni ota-ona» deb bejizga aytilmagan².

Janubiy Oʻzbekistonning yirik qishloqlarida uch-toʻrt yoki undan ziyod toʻp (toʻpor)ga yoki toʻdaga boʻlinib, har birining oʻz masjidi va guzari mavjud boʻlgan. Masjidsiz toʻp, toʻda mustaqil sifatida eʼtirof etilmagan. Chunki masjid, toʻp, toʻda

¹Boris Mathieu Petrik. Pouvoir don reseaux en Oʻzbekiston Post-Sovetienique.-Paris.:Presses Universitaires de Franse.2002.169.

² Oʻzbek xalqi maqollari. T., 1989. B.112.

markazi bo'lib qolmasdan, bolalar uchun saboqxonalar, musulmon odob-ahloq qoidalarini o'qitiriladigan maskanlar sanalgan. To'p, to'da markazi bo'sh vaqtini o'tkazish, madaniy hordiq chiqarish uchunгина emas balki, tarbiya, inson burchi va vazifalari haqida yoshlarga saboq berish joyi hisoblangan. Guzarning bir necha bo'lmasida qarindoshlar yoshi, mavqeiga qarab o'tirganlar.

Masjid hujralarida imom bolalarga nafaqat diniy, ahloqiy saboq bergan, balki, ularda hayotiy ko'nikma va malakalarini ham shakllantirgan. Mintaqadagi yirik to'p, to'da masjidlarida XX asrning 20-30 yillarida dinga qilingan hujumlar davrida ham bolalar jamoaviy yig'inlari va bolalar ongiga diniy-ahloqiy sifatlar, mahalla an'analari, mehmondo'stlik, ota-onani qadrlash kabi ezgu fazilatlar chuqur singdirilgan. Odob yuzasidan ijtimoiy ahamiyatga ega barcha marosimlar, xayrli yumushlarni boshlanishidan oldin odamlar masjidga kelishib imomdan fотиha olib ketishgan.

Bolalarni shogirdlikka olish marosimi ham masjididan boshlangan. Bu odat bola 6-7 yoshdan oshgandan so'ng amalga oshirilgan. Marosim barcha kasblarda deyarli bir xil bo'lgan. Shogirdlikka odatda bolani yoshlikdan (8-10 yoshda, ba'zan 6-7 yoshda) ota-onasi ustaga olib kelib topshirgan. Ota farzandini ustaga topshirishda «Go'shti sizniki, suyagi bizniki»-degan ma'noda, ya'ni butun taqdiri ustoz qo'lida deb qoldirgan. Bola o'zini-o'zi to'la mustaqil boshqarish darajasiga yetganda ota-onasi (yetim bo'lsa ustaning o'zi) fотиha ziyofatini o'tkazib bergan. Fотиha berish marosimiga keksa ustalar kalontar (oqsoqol) topshirig'i bilan taklif etilgan.

Bola tarbiyasi bilan bog'liq urf-odatlarining aksariyati mintaqa qishloqlarida oqsoqol, masjid imomi, kayvonilar, qo'ni-qo'shnilar ishtirokida o'tganligi aniqlandi. Oqsoqollar qishloq bolalari kelajagiga e'tiborli bo'lishgan. Shu bois har bir bolaning ahloq-odobi, yurish-turishi, eng avvalo jamoadan so'rab-surishtirilgan.

Bola ahloqsizlik qilsa, birinchi galda ota-onasiga tanbeh berilgan. Agar u ham foyda bermasa farzandning o'zi bilan suhbatlashib, uni to'g'ri yo'lga solishgan. Bunda ota-onalar ham o'z farzandlari qilmishlari uchun qo'ni-qo'shnilar

oldida xijolat bo'lishgan. Oilalarda uchrab turgan axloqsizliklar jamoaning salbiy fikrini yuzaga chiqargan, qishloqdagilar bolalar yurish-turishiga ko'z quloq bo'lib turganlar, bolalar tomonidan sodir etilgan har qanday noxush holatda eng avvalo ularning ota-onalari ogohlantirilgan.

Bolalardagi axloqiy fazilatlar nafaqat oilani, balki butun jamoa, mahalla turmushini belgilagan. XX asr boshida Turkiston xalqlari maishiy turmushini o'rgangan N.S.Likoshinning yozishicha, mahalliy o'g'il bola birovga noxushlik keltirmaslik uchun jamoa oldida o'zini tutishini yaxshi bilgan, kattalar orasida o'z o'rnini bilib, zrinsiz dasturxondagi taomga qo'l uzatmay, atrofdagilar suhbatiga aralashmay, uyga kelganlarga qoidali salom bergan, unga savol berishganda esa qolgan mehmonlar diqqatini jalb qilmaslik uchun faqat shivirlab qo'ygan.¹

Ota-onalar doimo bola tarbiyasida asosan mahalla jamoasi fikrini e'tiborga olishgan. Farzandining odobi uchun qo'ni-qo'shnilaridan «Otangga rahmat!» degan iborani eshitish ota-ona uchun g'urur hisoblangan. Shuning uchun ham xalqimiz orasida «Onasi maqtagan qizni olma, el maqtagan qizni ol»- degan maqolning mavjudligi bejiz emas albatta. Qarshi vohasi o'zbek, tojiklarida qizga sovchi kelsa uning kamchiligini, dastlab yaqin qo'ni-qo'shnilaridan surishtirishgan. Mazkur davrdagi beshikkerti odati chaqaloqlik chog'ida amalga oshirilgan anchagina eskilik sarqiti deb qaralsada, ota-onalar jamoadagi epli, axloqli qizni ko'z ostiga olib yurganlar. Kelajakda turmush quradigan farzandlarning bir-biriga muvofiq kelishi kerak» deb yozgan edi.²

Mintaqa o'zbeklarida bolalarning yoshi, jinsiga qarab tarbiyalashga alohida ahamiyat berilgan. Tog' etaklarida ko'proq chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullangan aholi kichik yoshdagi bolalari kattalari qatori ro'zg'or yumushlarini va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishganlar. O'g'il bolalar mehnat ko'nikmalariga xos tarzda jamoa bo'lib ov qilish odati rasm bo'lgan. Ov qilishda miltiq, kamon-yoy, palaxmon, qo'lga o'rgatilgan it, burgutlardan foydalanishgan. Ovg'a jo'nashdan oldin kengash o'tkazilib 1-2 kunga mo'ljallangan oziq-ovqat

¹ Лыкошин Н.С. Хороший тон на Востоке. Т., 1915-С.4

² Rizouddin Fahrudin. Oila. Т., 1991.

zahirasi, o'q-dori tayyorlangan, ov omadli kelganda o'ljalar qishloqqa olib tushilib, tozalangan. Pishirish uchun esa ayollarga topshirilgan. Kattalar tog'larda keng tarqalgan olqor, qunduz, kiyik, tulki, ayiq, o'spirinlar esa kaklik, bedana, kaptar, chumchuq ovlashgan. Bu esa bolalarni mehnatga, ovga jalb etish ularni jismoniy chiniqtirishga katta ahamiyat berilganligini ko'rsatadi. Oddiy jun yoki ipdan to'qilgan palaxmon (sopqon) bolalarni ovga o'rgatishda sevimli qurol bo'lib, u bilan dastlab jo'xori, bug'doyzor, poliz, bog' va hokazolarni qushlardan ko'riqlab, dastlabki ov malakalari shakllantirilgan.

Mintaqada bir urug' yoki yagona oila-qarindosh guruhga mansub kishilar bir qishloq tarkibidagi to'p (to'por) to'dada birga yashab kelganlar. Jamoa a'zolarining bunday joylashishi turli etnik guruhlar yashayotgan mahallalardagi bola tarbiyasi oilalaridan qisman farq qilgan, albatta.

Qarindosh bolalar o'smirlik pallasiga kimgach bir-birlarini yaqin tutinganliklari bois o'zaro munosabatlarga osonroq kirishib, hamjihatlik, qarindoshchilik muloqotlari ularda yaxshiroq kechgan. Shu sababli bir to'pda yashayotgan bolalarga bir-biriga o'zaro hurmatda bo'lishlariga katta ahamiyat berilgan.

Mintaqada bir qishloq yoki to'pda yashayotgan turli etnik guruhga mansub aholini boshqarish ba'zan qiyinchilik ham tug'dirgan. Bunday holatlar bolalar o'rtasidagi munosabatlarda, o'zaro jamoa-jamoa tarzidagi o'yinlarda kelishmovchilik, janjal, hatto mushtlashish tarzida namoyon bo'lgan. Oqsoqollari ruxsati bilan to'y marosimlar, xalq sayillarida bolalar ishtirokida qo'ng'iroq, Saroy, qatag'on, mang'it kabi qavmlarda tarafma-taraf yoki to'plar o'rtasida raqobatchilik ko'rinishidagi kurash, yugurish, ko'pkari musobaqalari uyushtirilgan. Tadbirlar bolalar va o'smirlar uchun chiniqish rolini o'ynab ularda epchillik, chaqqonlik shakllangan. An'anaviy raqobatchilik udumlari qadimiy manzilgohlarning juft qismlar (ikki yoki to'rt) ga bo'linishiga o'z ifodasini topgan.¹

Ikkinchidan o'zbek xalqiga xos an'analar va milliy urf-odatlar ham muhim omillardan biri bo'lib, serfarzand oilalar, ayniqsa, o'g'il bolasi ko'pchilikni tashkil

¹ Jabborov I. O'zbeklar: ijtimoiy turmushi va madaniyati. T., 2003. B.69.

etgan oilalar qadrlangan, hurmat-e'tiborga sazovor bo'lgan, bu o'z navbatida o'g'il bolaning jamiyatdagi mavqeining bir muncha baland ekanligi bilan izohlangan;

Uchinchidan o'zbek oilalarida qizlarni erta turmushga berish odati ham mavjud bo'lib, tabiiyki, bu oilada o'g'il bolaga bo'lgan ehtiyojni talab etgan. Chunki turmushga chiqqan qizlarning o'rnini jamoada albatta o'g'il bolalar egallagan, o'g'il bolalarga nisbatan avlod davomchilari va merosxo'rlari sifatida qaralgan.

To'rtinchidan ayollarning jamiyatdagi o'rnini va shu bilan xarakterlanganki, o'zbek ayollari asosan uy ishlari va bola tarbiyasi bilan band bo'lganlar, bu ro'zg'or va dala yumushlarida erkaklar mehnatini ko'proq talab etgan.

Shuningdek, mintaqa qishloq jamoalarida qiz bola tarbiyasining etnohududiy xususiyatlari haqida to'xtalsak, qiz bola hayotida jamoadagi ayollarning o'rnini katta bo'lib, yoshlik paytidan boshlab ular ongiga odob-ahloqli, hayoli, iboli bo'lish va mas'uliyat ko'nikmalari vujudga keltirilgan.

Qur'onda ham qiz bolalar o'g'il bolalar singari «ilohiy ehson» ekanligi asoslab berilgan, ular tarbiyasiga oid mulohazalar shariat hukmi darajasida amr etilgan.¹ Eng avvalo qizlarga yoshligidan oilada alla aytib beshik tebratish o'rgatilgan. Doya momo chaqaloqni beshikka belab bo'lgach, qizlar navbat bilan alla aytib beshik tebratishgan.

Chaqaloqni beshikka belash marosimi asosan ayollar va bolalar ishtirokida o'tkazilib, bu tantanada ko'pincha yoshi ulug', serfarzand ayollar, qo'ni-qo'shnilar, yaqin qarindoshlar faol ishtirok etishgan. Tantanada bolalarning ham ishtirok etishi ularda jamoaga uyushish hissini shakllantirgan, chaqaloqqa uzoq umr, sihat-salomatlik, unib-o'sishi tilanib, tez orada davradagi bolalar qatoriga qo'shilishi niyat qilingan. Kayvoni ayol onaga go'dakni boqish, cho'miltirish, har xil gigiyenik muolajalar qilish, Alla aytishni kanda qilmaslik haqida o'z bilganicha maslahat bergan. Beshik ustidan turli shirinliklar sochilib («sochaloq») jamoadagi bolalar uni terib olishgan. Bolalarni jamoaga yaqinlashtirish bilan birga,

¹ Qur'oni Karim. T., 1992. B.182.

chaqaloqqa kelajakda ezgu niyat, qut baraka, onaga esa serfarzand bo'lishi tilangan.

Oila turmushiga daxldor birorta tadbir yoki marosim ham ayollar jamoasi boshlig'isiz (kayvoni) o'tmagan. U doimo to'p oqsoqoli bilan maslahatlashib ish tutgan. Bola hayotidagi barcha marosimlar, chilla, beshik to'yi, aqiqa, oyoq to'yi va boshqa tadbirlarni u ayollarni ro'zg'or yumushlaridan bo'sh vaqtiga qarab, oqsoqol bilan o'zaro kelishib belgilangan. Agar ma'lum sababga ko'ra, urug' yoki jamoa kayvonisi tadbirda ishtirok eta olmasa jamoani qushnoch, doya ayollar, bibi xalfa, xo'jalarda otinoyi yoki buvotin boshqargan. Ba'zi qishloqlarda ayollarning kattaroq yig'inlarida kayvoni va dasturxonchi ayollarga yosh qizlar orasidan yordamchilar ham tayinlangan.

Mintaqadagi qo'ng'iroq, saroy qavmlari ovul jamoalarida, qizlar, ayollar qatori kigiz, gilam to'qish hamda po'stak tayyorlashda ishtirok etishgan.

Ayollarning ahloqiy fazilatlarini oiladagi huquq va burchi ko'plab milliy an'analarda namoyon bo'ladi. Ayol hamisha bola tarbiyasiga sadoqati, mehri bilan ajralib turgan, bu odat o'zbek ayoli mentalitetiga ham chuqur singib, Qur'oni Karimda aytilganidek oilada «Ayollarning qancha xalqlari bo'lsa, shuncha vazifalari ham bor».¹ Bunday vazifalar oila a'zolari o'rtasidagi munosabat, mehnat taqsimoti kabilarda ifodalangan. Ayollar oila yumushlari bilan band bo'lishlari bilan birga dala ishlarida erkaklarga yordam berishgan. Bo'sh paytlarda qo'ni-qo'shni ayollar yig'ilishib, bolalarga ertak, latifa, doston aytishib ovutishgan. Yarim o'troq chorvador aholi o'troq aholidan farqli o'laroq o'zbek xotin-qizlari uchun maxsus to'planish joylari bo'lmasada, ular biron-bir xonadonga yig'ilishib, qizu juvonlarga do'ppi, kiyim tikish, charx yigirishni o'rgatishgan, otinbibilardan turli qissalar tinglashgan, she'rxonlik qilishib, chiston, topishmoqlar aytishgan. Jamoadagi otinlar ko'proq diniy-ahloqiy masalalar targ'iboti bilan shug'ullanishib, bunday mansab aksariyat hollarda onadan qizga meros tarzda o'tgan. Ayollarning alohida mansab sohibasi otinbibilarning bolalar tarbiyasidagi o'zigacha o'rni bo'lgan.

¹ Qur'oni Karim. T., 1992. B.6-44.

Qish faslida dala yumushlari biroz tingach, qo'ni-qo'shni bolalar yanada yaxshiroq uyushganlar keksa ayollar bolalarga ertak, afsona, rivoyat, hikoyalar aytib berishgan. Sharq xalqlariga xos bu odatni bolalarni, ayniqsa qizlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi o'rni muhim bo'lib, qishda boshlangan ertak aytishlar o'z navbatida bahorning iliq tunlarida davom ettirishgan. Qizlarni 9-10 yoshdan o'g'il bolalardan alohida bo'lishga ko'niktirib borilib, ularning asosiy yumushlari dasturxon, bolish, yostiqlar tikish yoki oddiyroq biror narsa to'qish bilan bog'liq yumushlardan iborat bo'lgan. Bu davr qizlar hayotidagi ilk ko'nikmalar davri bo'lib, barcha hatti-harakatlar kattalar, ayniqsa ayollar nazoratiga olingan.

O'rganilayotgan davrda mintaqada jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi natijasida yoshlarni jamoada turli vazifalarni bajarishga, to'plangan tajribalarga suyangan holda ish tutishga asosiy e'tibor qaratilgan. Bunda oiladagi ma'naviy-ahloqiy muhitga katta ahamiyat kasb etgan, albatta.

Ajdodlardan avlodlarga meros tarzda ma'naviy-ahloqiy va jismoniy mazmunga yo'naltirilgan go'daklarni o'vatish o'yinlari ularda jamoaga uyusha olish tuyg'usini shakllantirgan. Bu aloqadorlikda qizlarning o'zaro muloqotlari, atrofdagilarga nisbatan munosabatlari paydo bo'lgan. Qizlar o'rtasida jamoada «chittigul», «yashinmashoq», «beshtosh», «mehmon-mehmon», «oq munchoqdan ko'k munchoq», o'g'il bolalar orasida «jupmi-toq», «ko'z bog'lar», «varrak», «g'iz-g'izak», «g'ir-g'irak», «mush ketdi», «ov», «urush-urush», «oshiq», «ishti», «xurjun-xurjun» kabi o'yinlarda jamoaga uyushish shakllangan.¹ Qizlarning guruh-guruh bo'lib uy va yovvoyi hayvonlarga, qushlarga taqlid qilishlari «ola hakka», «laylak keldi yoz bo'ldi», «ola tovuq» o'yinlarida o'z aksini topgan va ularga mos bayt va ashulalar aytilgan.

Janubiy O'zbekistonda o'g'il va qizlarning birgalikdagi «mehmon-mehmon», «kelin-kuyov», «ota-ona», tosh otar», «urdi-qochdi», «chur kesti», «oq so'nak (suyak)», «akkol», «bukurma tayoq» kabi o'yinlari uyushtirilgan.

¹ E. Jabborov O'zbek xalqi o'yinlari leksikasi (Janubiy O'zbekiston materiallari asosida). Avtoreferat. T., 1998.

Bolalarning go‘dakligida o‘tkazilgan o‘yinlarida o‘yin maydonchasi alohida ahamiyatli bo‘lib, ular mavsumiy bahor, yoz, kuz fasllarida o‘tkazilgan. Rus elshunos olimasi YE.M.Peshcherevaning yozishicha, XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Toshkent va Chimkent uezdi shahar aholisida qor erib bitmagan paytda bolalarning jamoaviy o‘yinlari uylarning tomlari va ayvonlarda o‘tkazilgan. Bahor darakchilari-turna, qaldirg‘och, laylaklar bo‘lib, uni ko‘rgan bolalar qo‘l ushlab «laylak keldi-yoz bo‘ldi», deb bayt aytishgan. Jamoa ta‘sirida bolalar ongida kimdir ota-ona, kimdir jamoa sardori bo‘lishga intilish, kattalarga taqlid shakllangan. Bolalar ota-onalari tarbiyasidan uzoqlashgandan boshlab tengqurlari davrasida asta-sekin kattalar jamoasiga qo‘shila boshlangan.

Qishloq jamoasida «falonchining qizi voyaga yetib qolibdi» degan fikrda uning tarbiyasiga faqat oila a‘zolari emas, balki mahalla, to‘p, to‘par, qishloq jamoasi ham javobgar bo‘lgan. Qizlar ma‘lum yoshga yetganda ixtiyoriy ravishda ayollar jamoasiga qo‘shilishgan. 12-13 yoshdan qizlarning «mursak kiyish» udumi bilan boshlangan marosimda jamoa Xotin-qizlari ishtirok etishib, qizga atab kiyim-kechak tikib kelin taom tanovulidan so‘ng mursak kiydirish marosimi o‘tkazilgan. Bu marosim qizning balog‘atga yetayotganligini ham anglatgan, albatta.

O‘rganilayotgan mintaqada bola tarbiyasida jamoaning o‘rni o‘ziga xos etnohududiy xususiyatlarga ham ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bular bolalar tarbiyasida ota-onaning, qarindosh erkak va ayollarning o‘rni, ular xulq-atvorining shakllanishi va rivojlanishida qishloq jamoasining o‘rni yaqqol ko‘ringan. Bolalar yoshligidan kattalar safiga qo‘shilishida yosh xususiyatlari muhim bo‘lib, 5 yoshdan so‘ng bolalar jamoaning yosh a‘zosi sifatida oilaviy turmushda, turli marosimlarda mustaqil qatnasha olishgan. Tadqiqotlarga ko‘ra XIX asr oxiri- XX asr birinchi yarmida mintaqada bolalarning yo shva jins xususiyatlariga ko‘ra mehnat taqsimoti shakllangan.

Ayniqsa, qizlar tarbiyasida jamoa ko‘nikmalaridan tashqari individual jihatlar ham tarkib topgan, ular ma‘lum yoshdan so‘ng xo‘jalik va ro‘zg‘or faoliyatida mustaqil qatnasha boshlasalarda jamoada ular sharqona odob, ahloq meyorlari asosida ish olib borishgan. Balog‘at yoshida qizlar jamoa hayotida

ayollarga yaqinlashib dastlabki ahloqiy ko'nikmalar shakllana boshlagan. Ayollar uyushtiriladigan gaplarda o'z bolalarini ham olib kelishgan, bundan maqsad ularni bolaligidan shunday dam olishga o'rgatib borishdir. Demak, gap marosimi ham qizlarning voyaga yetishida muhim rol o'ynagan. Shunday qilib, jamoani milliy tarbiya maskani, urf-odat va an'analar, o'ziga xos turmush-tarzi tarkib topgan makon sanalganligini yaqqol ko'rish mumkin. Shuningdek, jamoa bolalarning bir-biriga oqibatli, ko'makdosh, barchaga o'zaro qarindoshlardek muomalada bo'lishga undagan.

Hozirgi mustaqillik davrida an'anaviy o'zbek qishloq jamoasining vorisi mahalla davlat boshqaruvining birinchi bo'g'ini sifatida, aholining, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiya topishida muhim o'rin tutib kelmoqda.

Mahallada bolalarning xulq-atvori, hatti-harakatlari doimo qo'ni-qo'shnilar nazoratida bo'lishi, bunda ayniqsa boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan oila boshliqlarining ko'rsatmalari bilan ish tutish talab etilmoqda. Yoshlarda milliy g'urur, iftixor, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, ular orasida qonunbuzarlik va mayda bezoriliklarni oldini olish chora-tadbirlarini belgilash, milliy qadriyatlar asosida ish yuritish barchaning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Buning uchun mahalla qo'mitalari, fuqarolar yig'inlari, xotin-qizlar kengashlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar sohasidagi faoliyati yanada takomillashtirilmoqda. O'quvchilarni tarbiyalashda «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» konsepsiyasini amalga oshirishda mahalla rahbariyati, fuqarolar yig'inlari, xotin-qizlar kengashlari, mahalla faollari birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonni takomillashtirishda, tarbiyaga oid masalalar yechimini topishda maktab ma'muriyatiga yaqindan ko'maklashishni kuchaytirmoqda. Chunki mamlakatda ta'lim-tarbiyani zamonaviy talablar darajasida aniq belgilangan maqsad sari yo'naltirish orqali yoshlar bilan dolzarb muammolar yechimini topishda ko'zlangan aniq maqsadlarga erishish mumkin.

Mahallalarda huquqiy tarbiyani kuchaytirish uchun tarbiyasi og'ir, maktabdan ta'lim-tarbiyadan ajralib qolgan yoshlarni maktabga jalb etish, ko'r-ko'rona pul topish ilinjida yurgan bolalar va ularning ota-onalari bilan jamoat

joylarida, mahallalarda, huquq-tartibot tashkilotlari vakillari ishtirokidagi suhbatlarni ko'proq uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun oila, maktab va mahalla aloqalarini yanada mustahkamlash zarur. Yoshlarda milliy urf-odatlarimiz va an'analarimizga nisbatan hurmat hissini shakllantirish, ular ongida milliy g'urur va iftixor tuyg'usini takomillashtirishni hozirgi istiqlol davri taqozo etmoqda.

Ta'lim-tarbiya ishlarida milliy urf-odatlariga e'tiborni kuchaytirish zarur, chunki har bir xalqning o'ziga xos milliy xususiyatlari, avvalambor tarbiya orqali amalga oshiriladi. Bu esa millatimiz obro'si va nufuzini yanada oshiradi. Bularni yoshlar ongiga singdirishda eng avvalo oila hamda o'zbek xalqi mahalliy boshqaruvining negizi-mahalla muhim rol o'ynaydi. Mutaxassislar fikricha, odamning qanday shaxs bo'lib yetishishi o'rtacha 40 foiz muhitga, 15 foiz o'rtacha 45 foiz tarbiyaga bog'liqdir.¹

Respublika va viloyatlar miqyosida «Eng ibratli oila», «Eng ibratli fuqaro», «Eng namunali mahalla» tanlovlarini bosqichma-bosqich o'tkazish, ishtirokchilar va g'oliblarni moddiy rag'batlantirishni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday tadbirlar oila va mahalla hamkorligini yanada kuchaytirib, barcha oila va mahalla a'zolarini o'z jamoasi uchun faol bo'lishga undaydi.

Shuningdek, mahalla va boshqa jamoat tashkilotlari ish tajribalari, mavjud muammolar va ularning yechimlarini ommaviy axborot vositalarida doimo yoritib borish, mahallaning nufuzini xalqaro miqyosda keng targ'ib qilish, xorijiy olimlar va mustaxassislarni O'zbekistondagi mahallalar ish tajribalarini o'rganishga jalb etish lozim.

O'zbek an'anaviy jamoasidagi oila xo'jaligida bolalar zimmasiga ham o'ziga xos vazifalar yuklatilgan bo'lib, oila tarbiyasiga katta e'tibor berilgan. Yosh avlodga jamoaning teng huquqli a'zosi sifatida qaralgan. Jamoa a'zolari qarindoshlar o'rtasidagi hududiy xo'jalik ma'naviy yaqinlik rishtalari bola tarbiyasida yutuq va kamchiliklarini teran anglashga ularning turmushida bir-birlariga ko'mak va yordam bergan.

¹ «Qashqadaryo», 2008 yil 14 mart.

O‘zbekiston mustaqilligi davrida Prezident I.A.Karimov iborasi bilan aytganda “xalq vijdoni” hisoblangan mahalla davlat boshqaruvining birinchi bo‘g‘ini sifatida aholining, ayniqsa mamlakatimiz aholisining 64 foizini tashkil etgan yoshlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishida muhim o‘rin tutib kelmoqda. Hozir mamlakatimizda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 10 mln. 360 ming nafarni yoki aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 17 mln. 80 ming nafarni yoki 64 foizni tashkil qiladi. Ayni paytda mamlakatimizda 250 mingdan ziyod oila mavjud, ular yurtimizdagi oilalarning 16 foizini tashkil etadi.

Milliy demokratik institut hisoblangan mahallada yoshlarning xulq-atvori, hatti-harakatlari doimo qo‘ni-qo‘shnilar nazoratida bo‘lishi, bunda ayniqsa, boy hayot tajribasiga ega bo‘lgan oila boshliqlarining ko‘rsatmalari bilan ish tutishi azaliy an’anaga aylangan.

Yoshlarda milliy g‘urur, iftixor va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, ularning orasida qonunbuzarliklarni oldini olish choralarini belgilash, milliy qadriyatlar asosida voyaga yetkazish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun mahalla qo‘mitalari, fuqarolar yig‘inlari, xotin-qizlar kengashlari hamda diniy-ma’rifat va axloqiy-tarbiya bo‘yicha maslahatchilarning faoliyati uyg‘unlashtirilib, yanada takomillashtirilmoqda. Bularning “Nuroniy” jamg‘armasi hududiy bo‘limlari bilan aloqalari tobora mustahkamlanmoqda. Joylarda yoshlar va qariyalar o‘rtasida “Uch avlod uchrashuvlari”, davra suhbatlari va ochiq muloqotlar o‘tkazilmoqda.

Mamlakatimizda 1993 yilda ishlab chiqilgan “O‘quvchilarning tarbiyasida oila, mahalla, maktab hamkorligi” konsepsiyasini amalga oshirishda mahalla rahbariyati, fuqarolar yig‘inlari hamda faollari birgalikda ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda, tarbiyaga oid masalalar yechimini topishda maktab ma’muriyatiga yaqindan yordam berish kuchaytirilmokda. Sababi, mamlakatda ta’lim-tarbiyani zamonaviy talablar darajasida aniq belgilangan maqsad sari yo‘naltirish orqali yoshlar bilan dolzarb muammolarni hal etishda ko‘zlangan aniq maqsadlarga erishish mumkin.

Mahallalarda huquqiy tarbiyani kuchaytirish uchun tarbiyasi og‘ir, maktabdan, ta‘lim-tarbiyadan ajralib qolgan yoshlarni maktabga jalb etish, ko‘r-ko‘rona pul topish ilinjida yurgan bolalar va ularning ota-onalari bilan jamoat joylarida, mahallalarda, huquq-tartibot tashkilotlari vakillari ishtirokidagi suhbatlarni ko‘proq uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun oila, maktab, mahalla aloqalarini yanada mustahkamlash zarur.

Qo‘ni-qo‘shnichilikka mos ijtimoiy munosabatlar, oilaviy muammolar va milliy bayramlar, an‘anaviy sayillar va hasharlar kabi jamoaviy tadbirlarda yoshlarda birodarlik tuyg‘ulari tarkib topadi. Yosh avlodga bu tadbirlarda asosan ezgulikka yo‘g‘rilgan urf-odat va an‘analari singdiriladi. Bular yoshlarni mehr-oqibatli va o‘zaro hurmat ruhida tarbiyalashda o‘ziga xos tarbiya maskani vazifasini bajargan. Shu boisdan ham xalqimizda “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” pur hikmat naql katta tarbiyaviy ahamiyatga molikdir.

O‘zbeklarda yosh avlod tarbiyasida asosan ahloqiy va mehnat tarbiyasiga katta e‘tibor berilib, birorta ham yosh jamoa nazoratdan chetda qolmagan. Yosh avlod tarbiyasi uchun xalqimizning jamoaviy urf-odat va an‘analari o‘ziga xos mahorat rolini o‘ynagan. Bir vaqtlar “Ota-onang mahallang” deb bejizga aytilmagan.

Respublika “Ijtimoiy fikr” Markazi so‘rovnomasida ishtirok etgan yoshlarning 52,6 foizi mahalla inson ma‘naviyatini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi, deb ko‘rsatishgan.¹

Mustaqil O‘zbekistonda barkamol avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Prezident I.A.Karimov rahnamoligida “-2010 yil “Barkamol avlod yili” deb e‘lon qilinib, bu sohada keng qamrovli Davlat dasturi to‘g‘risidagi Prezident qarorining qabul qilinganligi buni yaqqol dalilidir.²

Zero, yurtboshimiz ta‘kidlaganidek: “barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma‘naviy jihatdan sog‘lom qilib

¹ “Fuqarolik jamiyati”, 2008 y.il, 4-son, B.32.

² Xalq so‘zi, 2010 yil 28 yanvar.

o‘stirish, ularning baxt va saodati, farovon kelajagini ko‘rish, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi.¹

Yoshlarimizning kelajakda olib boradigan barcha harakatlari Vatanimiz taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu boisdan ham yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, turli halokatli tahdidlar va yot diniy ekstremistik ta’sirlardan, buzg‘unchi vayronkor g‘oyalardan, tuban “ommaviy madaniyat” xurujlaridan himoya qilib, ularda mafkuraviy immunitetni hosil qilish maqsadida sog‘lom va insonparvar milliy mafkura bilan qurollantirish hozirgi davrning eng asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

“Barkamol avlod yili” Davlat dasturi to‘g‘risidagi Prezident qarorida ta’kidlanganidek: “Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivjolanagan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarning yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish...”² eng muhim vazifa bo‘lib turibdi.

Demak, hozirgi davrda mahalla boshqaruvi oldida turgan vazifalardan biri ma’naviy-ahloqiy tarbiya jarayonlarida yoshlarning dunyoqarashlarini, fikrlashlarini Vatan manfaatlariga yo‘naltirishdan iboratdir. Chunki, aynan yoshlar ertangi kunda ishlab chiqarishga va davlat boshqaruviga kelishadi. Mazkur qarorda uqtirilganidek: “Yosh oilalarga g‘amxo‘rlik qilish ishlarini kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishni ta’minlash, jismonan va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash borasida jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan sog‘lom va mustahkam oilani shakllantirish uchun zarur shart-sharoit yaratish” dolzarb vazifa qilib qo‘yildi.

¹I.A.Karimov “O‘zbekiston Konstitusiyasi-biz uchun iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida va fuqarolik jamiyatini barqaror etishda mustahkam poydevordir”- “Qashqadaryo”, 2009 yil 14 dekabr.

²“Barkamol avlod yili” Davlat dasturi to‘g‘risida Prezident qarori, “Xalq so‘zi”, 2010 yil 28 yanvar.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: “Mahallaning aholimiz ayniqsa, yoshlarimizning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni yechish, ijtimoiy sohaning samarali faoliyat yuritishning ta'minlash, joylarda jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash borasidagi hissasi tobora kuchayib bormoqda”.¹

Xullas, har bir yosh tarbiya beshigi hisoblangan mahallada voyaga yetadi. Yoshlarga e'tibor kelajakka e'tibordir. Mahalla taqdiri mamlakat kelajagi bilan uzviy bog'liqdir. Agar mahalla obod bo'lsa-yurt obod bo'ladi, mahalla osoyishta bo'lsa-yurt tinch bo'ladi. Obod va osoyishta mahallada barkamol avlod voyaga yetadi.

¹Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir. “Xalq so'zi”, 2010 yil, 28 yanvar

X U L O S A

Tanlangan mavzuni o'rganish quyidagi umumlashma xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. O'zbekistonda 1991 yilda qo'lga kiritilgan mustaqillik boshqaruv tizimida qayta qurish o'tkazish kerakligini kun tartibiga qo'ydi. Bu jarayonlar jamoatchilik o'zini o'zi boshqarish tizimini ham qamrab oldi. Mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirish yo'lida moziyga murojaat qilindi. Asrlar davomida xalqimizning tarixiy tajribasi mahallaning uzoq yillar mobaynida takomillashib kelgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idorasi ekanligini ko'rsatdi;
2. o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirish jarayonlarida ularning tashkiliy va huquqiy asoslarining yaratilishi bosqichma-bosqich amalga oshirildi va bu organlarning doirasi kengaydi. Fuqarolar yig'ilishining kengashi, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar, fuqarolar yig'inining taftish komissiyasi va ma'muriy komissiyalarga ham o'zini o'zi boshqarish organi maqomi berildi;
3. Respublikada o'zini o'zi boshqarish organlari sifatida – mahalla, qishloq, ovul, shaharcha fuqarolar yig'inlarining rasman belgilanishi va ularning faoliyatining shakllanishi hamda bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklanishi, davlatimiz zimmasidagi ko'pchilik vazifa va huquqlarni ana shu organlarga berilishi, ayniqsa, aholini kuchli ijtimoiy himoyalash siyosatini o'tkazishda ular maqomining aniq belgilanishi jamiyatimiz hayotini demokratlashtirishda katta ahamiyat kasb etdi.
4. O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlarining ish faoliyatining qay tarzda yo'lga qo'yilishi va rivojlanishi bevosita oqsoqol, maslahatchilarga bog'liqdir. Ana shunga katta e'tibor berilgan holda bu organlarni shakllantirish jarayonlarida oqsoqol, maslahatchi va kotib lavozimi joriy etildi;
5. o'zini o'zi boshqarish organlarini idora etishda rais va maslahatchilarning o'rni beqiyosdir. Ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan holda oqsoqol va maslahatchilarining saylov tizimi shakllantirildi.

6. o'zini o'zi boshqarish organlari shakllantirilib, faoliyati takomillashgach, bu idoralar fuqarolarning millati, irqi, jinsi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy manfaatlaridan kelib chiqib, yagona maqsad yo'lida o'zaro hamkorlikka birlashtiruvchi, tarixan shakllangan, aholi manfaatlarini ifodalovchi, sharqona demokratik institutga aylandi.

1991-2011 yillarda mustaqil O'zbekistonda milliy davlatchilikning shakllanishida o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni va ularning tarixini o'rganish quyidagi taklif va mulohazalarni bayon etish imkonini berdi:

– o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirish jarayonlarida ularning tashkiliy va huquqiy asoslarining yaratilishi bosqichma-bosqich amalga oshirish;

– o'zini o'zi boshqarish organlari orqali aholini kuchli ijtimoiy himoyalash siyosatini o'tkazishga katta ahamiyat berish;

– O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining qay tarzda yo'lga qo'yilishi va rivojlanishi bevosita oqsoqol, maslahatchiga bog'liqligi sababli ularga maosh to'lash tartibini joriy etish;

– O'zbekistonda milliy davlatchilikni shakllanishida ijtimoiy fanlar fakultetlarida o'zini o'zi boshqarish tamoyillari tarixini o'rganish kurslarini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. “O‘zbekiston”, 2011.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T., 2010.
3. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. T. “O‘zbekiston”, 2010.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish ustuvor maqsadimizdir. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarilish sari. T.18. T. 2010.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi. O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari choralari. T. “O‘zbekiston”. 2009.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T. “O‘zbekiston”, 2008.
7. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T.11. T. 2003, B.255.
8. Karimov I.A. Yangilanish va o‘zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydi. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.. T. 10. T.2002.
9. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. “O‘zbekiston”, 1999.
10. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T. “Sharq”, 1998.
11. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T. “O‘zbekiston”, 1998.
12. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T “O‘zbekiston”, 1997.
13. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T. “O‘zbekiston”, 1997.
14. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T. “O‘zbekiston”, 1996.
15. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T. “O‘zbekiston”, 1996.
16. Karimov I.A. O‘zbekiston, milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T. “O‘zbekiston”, 1996.
17. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T. “O‘zbekiston”, 2012.

18. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. T., 1993.
19. Арифханова З.Х. Современная жизнь традиционной махалли Ташкент. Т. «Узбекистан», 2000.
20. Boris Mathieu Petrik. Pouvoir don reseaux en O'zbekiston Post-Sovetienique.- Paris.:Presses Universitaires de Franse.2002.
21. Jabborov I. O'zbeklar: ijtimoiy turmushi va madaniyati. T., 2003.
22. Jalilov Sh. Davlat hokimiyati mahalliy organlari islohoti: tajriba va muammolar. T.1994.
23. Jalilov Sh. Mahalla yangilanish davrida. T. “Mehnat”, 1995.
24. Jalilov Sh. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari. T.2001.
25. Лыкошин Н.С. Хороший тон на Востоке. Т., 1915
26. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T. “O'zbekiston”, 2001.
27. Mahalla boshqaruvi. Qo'llanma. T., 2006.
28. Mahmudbekov SH. Oila va mahalla – milliy qadriyatlar maskani, tarbiya o'chog'i. T.1999.
29. Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manblarda. T., 1996.
30. Qur'oni Karim. T., 1992.
31. Husanov O. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. T.1996.
32. Saidov A. Mahalla Milliy tarixiy qadriyat. – “Mahalla”, 2010 yil, 11 mart.
33. Suvonqulov M. Mahalla-qariyalarni qadrlash va yoshlarni ma'naviy tarbiyalash maskani.- “Fuqarolik jamiyati”, 2008 yil 4-son, B.33

ILOVA







